

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 4-avgust, chorshanba № 31 (9356)

Xalq ziyolilari gazetasi

Oliy ta'lim og'usini
maktablarga sochmang!

4-bet

Orzuga ayb yo'q
yoxud yangi o'quv yili
oldidan eski xayollar

5-bet

Maktab yaxshimi yoki molbozor?

2-bet



Men 22 yil mobaynida 100 ga yaqin o'quvchimni fan olimpiadasiga tayyorlab, yana o'z ustida tinimsiz ishlab, mahoratimni oshirib, darslarim samara bersin, o'quvchilarim hammdan bilmindon bo'lsin deb yangi-yangi metodlarni darsga joriy qilib yurgan ekanman...

Ammo Xalq ta'lifi a'lchisi bo'lish uchun ijtimoiy tarmoqda o'tirib olib "like" yig'ishning o'zi yetarkan-ku...

Normamat ESHONQULOV

4 yil oldin xususiy maktabda ishlardim. To'g'ri, qog'ozbozlik, tadbirbozlik yo'q, sinfda o'quvchi soni 10 nafar edi. Maosh ham qoniqlari. Ammo keyinchalik davlat maktabiga o'tishga qaror qildim. Chunki o'qituvchi o'z ustida ishlashi uchun tadbirning, hujjatarning, tekshiruvlarning ham alohida o'mni bor ekan. Xususiy maktabda o'z bilganimcha ishladim, hech kim bezovta qilmadi. Natijam ham yaxshi edi, lekin davlat maktabini ma'qul ko'rdim.

Saida ELMURODOVA

Ijtimoiy tarmoqlardagi o'qituvchilar guruhlarini kuzata turib, ustozlarning muhokama mavzulari ham mavsumiy bo'lib qoldi deb o'yladim.

Mart-aprel — Attestatsiya.
May-iyun — Ustama.
Iyun-iyul — Vaksina olish.
Avgust-sentabr — Dars taqsimoti.
Davom ettiring...

Rahbaroy MELIBOYEVA

Tilimizning uzoq ildizlari
tutashgan bir til: xalach tili



7-bet



2-bet

XP

Muallim maktabga qaytdi

Maktab yaxshimi yoki molbozor?

Safar muallimni bunday alfozda uchrataman deb o'ylamagan edim. Oyog'ida loyga botgan etik, ustida paxtasi chiqib ketgan chopon, belini esa arg'amchi bilan boylab olgan, boshida telpak, soqoliga yaqin o'n besh kunda ustara tegmagan...

Nahotki, bu kishi bir paytlar tumanimiz maorifchilarining oldi, mash'ali, har yili bir necha bor gazetada surati chiqdigan, o'quvchilari olimpiada va tanlovlardan g'olibi bo'lgan muallim bo'lsa?

Bugun "ov"imiz yomon bo'lmadi, yuring, bir piyola choy ichaylik, — deya domla tirsagimdan tutib bozor yaqinidagi osxona tomon yetakladi. Ko'p o'tmay stolga bir lagan yaxna go'sht, ikkita tandirdan uzilgan issiq non, choynak-piyoli qo'yildi. Muallim baymlixotir nomni sindirdi, choy quyib uzatdi va ikkalamiz jimgina tamaddi qilishga kirishdi.

— Xo'sh, oylik qancha bo'ldi shogird?

— Ikki millionga yaqin...

— Shu pul bilan qanday ro'zg'or tebratyapsan?

— Hama, o'tib turibdi...

Hali bolalaring yosh-da, men ham sendek edim, fidoyi... Universitetni "qizil" diplom bilan tugatganman, maqlolarim gazeta-jurnallarda ko'p bosilgan, domlalikka olib qolishmoqchi ham bo'lishgandi, bilasan, oilada yolg'iz o'g'ilan, keksa ota-onamni o'ylab qishloqqa qaytdim. Qolganidan o'zing xabardorsan, xudo berib yangang uch o'g'il, ikki qiz tug'ib berdi. Yillar esa o'taverdi, orzular, umidlar talabalikdagisi daftarlarda qoldi. Maktabga ishga joylashdim, uyim demadim, ro'zg'orim demadim, men qatorilar, hato uch baho ololmagan o'quvchilarim yo'lini topib mashine mindi, dang'illama uy qurdi, biz esa almisoqdan qolgan velosipedni minib yuraveribmiz...

Ikkinci o'g'limni taniysan, matematikadan zo'r birinchili yili kontraktga tushdi, o'qima dedim, ikkinchi yil qizim ham birga ketdi, ikkovi ham yana o'sha baloga ilashdi, jonin chiqib ketdi, uydagi sigir-buzoq, hatto eshakni ham sotdim, yarmiga yetdi. Bir boyvachcha tanishimdan qarz ko'tardim, bolalarim xursand bo'lishdi, qiyqirishib shaharga jo'nab ketishdi, meni esa g'am yedi, alam yedi...

Ikki kun telbadek faromush yurdim, umrimda birinchira marta maktabga kechikib bordim, darsga kirolmadim, uyga qaytdim. Qarzni esa bir oyning ichida to'lashim lozim edi, bo'limasa ustamasining o'zi naq ikki million bo'lardi... Ayt-chi, bu oz pulmi? Sen uchun katta pul bo', o'shanda meni uchun ham katta pul edi, ustiga-ustak ikki-uch oylab maosh ham kechikadigan odat chiqardi. Xullas, ishdan bo'shadim, kitob-daftarni tokchaga qo'yib, pul topishni o'yladim va oxiri topdim, o'zimni molbozorga urdim, chontagida hemiri yo'q dalol, jallobo'ldim. Bu kasb ham osom emas ekan, avvaliga yovqarash qilishdi, hatto bir-ikki turtishdiyim, lekin men bo'sh kelmadim, birini aka, dedim, birini uka. Bilasanmi, Xudo berib kir kechada besh yuz ellik ming ishlabman, xotinim cho'ntagindagi pulni ko'rib, o'g'riligil qilgan deb o'ylan chog'i esi o'g'ib qolayozdi. Yotig'i bilan tushuntirdim, uning quvonganini bir ko'rsang edi. Shunday qilib, haf-tanining besh kuni ham molbozorda javlon uraverdi, kunlar esa o'taverdi, bilasan, tabiatian qaysar odamman, qolaver-sa, kitob o'qiganim, tilchiligm qo'l keldi, mol oladiganni ham, sotadiganni ham shunday avravdig'an so'zlarini topdimki, hatto o'zim-o'zimga qoyil qolgan paytarlarim ham bo'ldi. Ishqilib, bir yarim oy deganda qarzimni ustamasi binal qaytardim, ro'zg'orimga ham baraka kirgandek bo'ldi. Ammo ko'nglim notinch edi, ich-ichimdan ezillardim, maktabni, kasbdoshlarimni, ayniqsa, qorako'z o'quvchilarimni sog'inardim...

Shu orada talaba ukalaring kelib qolishdi, oldi qish, kiyim-kechak, yo'lkira deganday, cho'ntagindagi borimni berdim, jo'nab ketishdi. Yelkamdan tog' ag'darilganday

bo'ldi, orasta kiyinib maktabga bordim. Darslarimni yan-gi kelgan muallimaga berishgan ekan. O'zimning o'quvchim. Mayli, yil oxirigacha o'qitaver, dedim.

Katta o'g'limning harbiydan qaytganiga olti yil bo'ldi, yoshiham yigirma oltdi, mening shu yosha ikkita bolam bo'edi, haliyam insofli ekan, biortasini ergashtirib ke-lib o'tirsma nima qilardim? Xullas, kelin olish harakatiga tushdim. Yana bozorga qaytdim. Amallab o'g'limni yulantirdim, keyin toromqa olish, uy qurish kabi chiqimli muammolari chiqdi. Qisqasi, uka, mana besh yildan buyon bozorda yuribmiz. Istalgan mol bozoriga borib so'ra, darrov tanashidi.

To'ng'ichimni ishga joyladim, shahardan bir xonali uyu obil berdim. Bu ishlar ham quruqqa bo'lmadi. Yaxshiyamki, uchinchi o'g'lim enasiga tortgan, esligina, o'qiymen demadi, maktabni bitirib yordamchimga aylan-di. Endi, bu yog'i yoshim ham elliandan oshdi, oyog'im og'riyidigan bo'lib qolgan, shuning uchun unga eskiroq "Matiz" olib berdim, hali zamoni meni olib ketgani ke-lib qoladi. Hali yelkamda tashvishlar ko'p, singillarini uzatish, uy-joyni yangilash, nevaralarga to'y qilish, eh, xulla, tirkchilik, tashvishlar hech ado bo'lmaskan...

Ko'p o'tmay yonimizga bashangina kiyigan yigit-chi kiri keldi, Safar muallim cho'ntagidan pol chiqarib stol chetiga qo'ydi, o'g'il otasini yelkasidan suyab ma-shiniga o'tqazdi.

Oshxona egasi pullarni sanab oldi, mening esa o'y-xayolimda Safar muallimning so'zlarini aylanaverdi, aylanaverdi...

Bu voqeaning bo'lganiga ham besh yildan oshdi. Shu orada Safar muallim o'zining sevimali kasbiga qaytdi. G'ayrat bilan ishlab anchagini muvaffaqiyatini qo'lg'a kiritdi. Ertaga ustozni nafaqaga kuzatamiz, shu bahona jamoani uyiga taklif etgan. Maktabimiz direktori qutlov xatinini yozishni menqa topshirdi. Men esa qutlov o'miga shularni qoraladim.

O'rolboy QOBIL

izlanaman, o'rganan degan odamga virtual olam ham yetarlicha manba berishi mumkin. Ammo afsuski, ba'zi o'qituvchilarimiz internet deganda faqat ijtimoiy tarmoqlardagi bo'lar-bo'imas kanallari, turlari saytlari, platformalardagi oldi-qochdi videotasvirlar, g'iybat-fasodga to'la ma'lumotlarni olishningizda tushunmoqda. Bugun ulardan qaysidir san'atkor hayotagi o'zgarish yoki qo'yimgi, trendga aylangan ko'cha mashmashasi haqidagi so'rasangiz, biyron-biyron javob berisha-di-yu, "Ma'rifat" gazetasi yoki "Tafakkur" jurnalidagi biror maqola haqidagi so'rasangiz, yelkalarini qisishadi. Ustoz, o'z nomi bilan ustoz, u ma'rifatning, ziyo va yuksak tafakkurning timsolli bo'lishi kerakmi yoki ko'cha mashmashasiga o'ralashgan odidiyoga odammi? Bu oldi-qochdilar bilan ongini to'ldirgan o'qituvchi ertaga maktabiga kirib bolalarga nima haqda gapiradi yoki o'sha ko'rganlarini o'quvchilar bilan muhokama qilmashtirish, degan tashvishli savollar ham ba'zida yurakka g'ulg'ula soladi.

Kasbim taqozosiga ko'ra har kuni shunday ustozlar bilan muloqotga kiri-shaman, birlgilida yangi vazifalar ijrosi va boshqa masalalarda hamkorlikda ishlaymiz. Shu jarayonlarda ba'zi ustozlarimizning donoligi va tirishqoqligidan quvonib ketsang, ayrim ustozlardagi loqaydiy, mas'uliyatsizlikni ko'rib hayratga tu-shasani.

Misol uchun, chekkaroq qishloqdagida maktabda ancha yillardan buyon ishlay-digan, ko'p yillik tajribaga ega ustozdan sohangizda oidi qanday ilmiy nashrlar, yangi kitoblar va qo'llannalar bor, degan savolimga jo'yaliroq javob topa olmadidi.

Yana bir adabiyot o'qituvchisidan XX asr uyg'onish davri adabiyotining atoqli vakillaridan buri Abdurouf Fitrat hayoti, il-miy merozi, adabiy asarlarini haqida batafsilo-roq bir maqola olishga harchand urindim, ammo afsus, qo'lida ma'lumotlar, ilmiy manbalari yo'qligi haqidagi bahonalarindan boshqa hech narsa ololmadim. Bunday achinari va og'riqli misollarni istagancha keltirish mumkin.

Shu o'rinda meni qiynatotgan yana bir masala haqida to'xtalib o'tsam. Bugun texnika zamonida bosma nashrlarning o'mini elektron nashrlar, virtual axborot manbalari egallagani bor haqiqat. O'qiymen,

Muhitaram yozuvchimizning hikoyasini o'qiy turib, bir narsa yodimga kelgandi. Shu o'rinda achchiq bo'lsayam, shu mulohazani atiyib ketmasan bo'limas. Yozuvchi hikoyasida o'qituvchi xarakteridagi sakkaliklar, ojizliklar, xatolar haqida to'xtaladi. Meni esa ayrim o'qituvchilarining yozuvdagagi, imlosidagi xatolar qiyaydi. Ijtimoiy tarmoqlardagi o'qituvchilar orasida ochilgan turli xil guruhlarini kuzatib, ba'zi o'qituvchilarimizning sa-vodxonlik darajasi, matn tuzish, fikrini yetkazish masalasidagi sakkalik va xatolarini ko'rib, xuddi hikoya qahramonidek "Kechirasiz, o'rtoq muallim" devorgim keladi.

Bular bir hikoya mutolaasi natijasida tug'ilgan mulohazalar edi. Uni yozishidan maqsad ertaga bizga ham kimdir qo'lini nuqib "Kechirasiz, o'rtoq muallim" deya kinoya qilmasa, bunga yo'li qumasak, o'z oldimizga qo'yilgan maqsad va bizga bildirilgan ishonchni to'la oqlagan bo'la-miz.

Feruza HAYITOVA,

Dehqonobod tuman xalq ta'limi bo'limining boshlang'ich ta'lilm metodisti

Ta'kid

Kechirasiz, o'rtoq muallim!

Yaqinda O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkan A'zamning "Kechirasiz, o'rtoq muallim" nomli hikoyasini o'qib qoldim. Hikoya qahramoni oddiy qishloq maktabini, u dargohda kechadigan turli munosabatlari va ma'naviy muhitni juda shirali til va kinoya bilan tasvirlaydi. Adlib bir hikoya asnosida o'sha davrdagi ta'lim tizimining ahvoli, ilm va ma'rifikatga bo'lgan munosabat va o'qituvchilarining ma'naviy qiyofasini qahhorona usulda bayon etadi. Hikoya tasvirlangan har bir dars episodi, o'qituvchilar xarakteri, o'quvchilar va ustozlar orasidagi munosabati ko'rib, ba'zi mulohazalar tug'ildi.

Hikoya so'ngidagi achchiq xulosa esa meni mazkur maqolani yozishga undadi.

Hamma zamonda ham o'qituvchining ma'naviy qiyofasi jamiyatning ma'naviy qiyofasini ko'rsatadi. Sababi, ustozlik juda muqaddas kasb. Shuning bilan birga uning zahmati va mas'uliyati ham juda katta. Millionlab ota-onalar va hukumatimiz, farzandlarimiz taqdirlarini bizga ishonib topshirdimi, demak, bunga javobgarlik hissini tuyishimiz, ularning taqdirlarini hayot-mamat masalasi deb bishimiz shart.

Xo'sh, bugung o'qituvchining ma'naviy qiyofasi qanaqa? Undan ko'nglimiz to'ladimi? O'qituvchining qiyofasi jamiyatimiz yoshlari uchun ibrat bo'la oladimi? Uning bilimi, tafakkuri, dunyoqarashi zamon shiddatiga dosh bera olyaptimi? Ta'lim tizimida yuz berayotgan izchil islohotlar, o'zgarish va yangilanishlarni barsha o'qituvchilar ham birdekl anglab, tush-unib yeta olyaptimi?

Shu bilan birgalikda, ilm-fanda, madaniy va adabiy hayotimizda kechayotgan o'zgarishlarni qanday o'zlashtir-yaptilar? Hamisha zamon bilan hamnafa bo'lishi va kerab bo'lsa, o'z davridan picha oldinroqda yurishi kerak bo'lgan

hurmatli muallimlarimiz bugun qanday ilmiy manbalardan oziqlanmoqdalar? Hurmatli yozuvchimiz bayon etgan voqealar binzning bugungi hayotimizga ham daxildor emasmi?

Albatta, bunday murakkab va ayni paytda og'riqli savolga biroz qynalibroq bo'lsa ham ijobiy javob bera olamiz. Sababi, tafakkuri va dunyoqarashi keng, zamon va makonda kechayotgan turli voqe-a-hodisalar mohiyatini anglagan va o'z ustida tinimiz ishlab, zamon va o'quvchilar talabiga javob bera oladigan o'qituvchilarimiz keragicha topiladi. Butun umrini millat yoshlarini tarbiyasiga bag'ishlagent, har qanday qiyin va murakkab vaziyatlarda ham o'z a'moli, e'tiqodi va fikridan qaytmaydigan, millatga ma'naviy onalik vazifasini qoyilmaq qilib o'tayotgan fidoyi ustozlarimiz bugun har bir go'shada, har bir maktabda bor. Biz ular bilan har qancha faxrlansak, hurmat va izzatini joyiga qo'syak kam.

Ammo ming afsuski, masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Ochig'ini aytak, holva degan bilan og'iz chuchimaydi. Oqning yonida qorani, kunduzning yoni-

Dolzarb mavzu

MAKTABDA FIZIKA:

muammo va takliflar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lrim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlanadirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan 2021-2023-yillarda fizika fanlari bo'yicha ta'lrim sifatini oshirish va fizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning natijadorligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Hayotimiz, har bir harakatimiz fizika bilan bog'liq. Tinch turgan har bir jism ayni paytda harakatda. Bu mantiqi bunga fizika fani isbotlab beradi. Elementar zarradan tortib, bizni o'rta turgan galaktikagacha bo'lgan obyektlar va turlu-tuman hodisalarini bizga fizika fani o'rgatadi. Fizikani o'rganish insonlarning bilish va mantiqan fikrash qobiliyatlarini rivojlanadir.

Fizikadan davr talablariga mos ravishdagi bilimlarga ega bo'lmasdan, Vatanimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining uzoq muddati maqsadi va vazifalarini yechishga erishib bo'lmaydi. Hozirgi kunda ham fizika fani umumiy o'rta ta'limga maktablarida eng muhim va asosiy fanlardan biri hisoblanadi. Shunday bo'lsada, makablarda bu fanni o'qitishni rivojlanirish va uni o'rganish bilan bog'liq bir qator muammolar mavjud bo'lib, ushbu muammolarni quyidagi asosiy guruhlarga birlashtirish mumkin. Maktab fizika xonalarini asbob va uskunalar bilan ta'minlash muammosi ko'p. Jumladan, o'quv dasturlarida berilgan barcha namoyishli tajribalar, uy sharoitida bajarilishi mumkin bo'lgan tajribalar XXI asr fan-teknika taraqqiyoti darajasidagi laboratoriya ishlari va namoyish tajribalari ko'rsatilishi va bajarilishi uchun zarur laboratoriya va multimedya asbob va uskunalar yaratilishi va fizika laboratoriyasida mavjud bo'lishi lozim.

Zamonaviy kompyuterlar, shu jumladan, internet tarmog'i ta'limga fizikani o'rganishda bir qator ijobji yususiyatlarga ega. Xususani, animatsion fizik modellar bilan o'qitish dasturlari, kompyuterda namoyish etiladigan video-lavhalar, avtomatlashtirilgan laboratoriya qurilmalari va boshqalar uzlusiz ta'limga fizika fanini o'qitishni zamonaviy darajasini oshiradi.


Fizika fanini o'qitish, zamonaviy texnologiyalar bilan ishslashni talab etadi. Fizika dasturlari o'tgan asr qobig'ida shakllantirilgan bo'lsa, davr tabalariiga muvofiq ravishdagi sifatli ta'limiň egalash imkoniyati bo'lmaydi. Ta'limming hozirgi kundagi muhim ko'rsatkichlaridan biri, uning sifati, qaysiki, xalqaro ekspertlar fikriga ko'ra, ta'limga jarayonini tashkil qilishga bog'liq. So'nggi yillarda bir qator rivojlangan mamlakatlar ta'limga tizimida o'z qarashlariga qarshi o'laroq, asta-sekin aniq va tabiiy-ilmiy fanlar sohasiga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Lekin so'nggi yillarda mamlakatimizda aniq va tabiiy-ilmiy ta'limga sifati pasayganligi kuzatilmoqda. Bilimlarning bunday pasayib borish tendensiyasi butun dunyo bo'ylab ildiz otib, oxir-oqibat ta'limga krizisiga olib kelishi olimlar tomonidan e'tirof etilmoqda.

Bugungi kunda uzlusiz ta'limga tizimi, shu jumladan, umumta'limga maktablarida fizika fani ta'limga salbiy ta'sir qiluvchi omillardan biri uni o'rganish uchun ajaratilgan soat miqdorining kamligidir.

Mazkur soat miqdorini sinflar kesimida ko'paytirib uzlusizlik va uzviylik prinsipi asosida o'rganishini yo'lda qo'yish lozim deb hisoblayman.

Muhim muammolardan yana biri — fanlararo ichki bog'lanishning yetishmasligidir. Ya'ni, fizikani o'rganishni amaldagi 6-sinfdan emas, 7-sinfdan boshlash maqsadga muvofiq.

Shunda fanlararo o'zaro ichki bog'lanish yuzaga kelib, uzlusiz va uzviylik prinsipi asosida tayyorlangan fizika ta'limi o'quv dasturi va darsliklari yaratiladi. Natijada, umumiy maktablarida fizikaning mexanika, molekulyar fizika va termodinamika asoslarini, elektrodinamika, kvant fizikasi elementlari kabi bo'limlari o'quvchilarining bilish imkoniyatlariga moslashtirilgan ma'lumotlar o'rganiladi.



Bunda fizikaning har bir bo'limi alohi-da tushuntirish apparatiga ega bo'lib, ko'pchilik fizik hodisalarini sifatlari qarab chiqishda ularning ko'pincha takrorlanish imkoniyatlarini chegaralaydi. Natijada moddiy olam jarayonlari va obyektlari o'tasidagi tabiatda mavjud ichki bog'lanish o'quvchilar uchun aniq bo'lgan bo'lib, ular diqqatidan chetga qolishiga sabab bo'ladi. Birinchidan navbatda, 9-11-sinf o'quvchilar bilan ishslash amaliyotidan ma'lum bo'lishicha, fizikadan masalalar yechishda matematik qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Ushbu qiyinchiliklar quyidagi bir qator sabablardan kelib chiqadi. Masalan, fizikadan masala yechishda zarur bo'lgan o'quv materiali matematika kursidan o'rganilmagan yoki o'rganigan bo'lsa ham u kerakli bo'lgan darajada qayta ishlanmaganligi tuyayli o'quvchilar ushbu materialni fizikadan masala yechishda qo'llay olmaydi yoki "Buni matematikadan o'rganigan-ku, deb", e'tibordan chetga qoldiradilar. Birinchidan, ushbu muammo fizika va matematika o'tasidagi fanlararo bog'liqlik e'tiborga olimganligi bo'lsa, ikkinchidan, ushbu fanlar o'quv dasturlari mazmunini o'tasidagi mavzularini o'rganishdagi o'zaro bog'liqlik e'tibordan chetga qolganligidir.

Test tahillaridan ma'lum bo'lishicha, bittiruvchilarning ko'pchiligi fizikaviy hodisalarini tushuntirishda jadval yoki grafik ko'rinishidagi ma'lumotlarni qayta ishslashda, turli jarayonlarning sodir

bo'lishida, fizik kattaliklarni o'zgarish tavsifini aniqlashda fizikaviy hodisalarini tushuntirish kabi topshirqlarini bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Fizika o'qitishda yuqori darajadagi muvafqaqiyatga erishishning muhim sharti bo'lib, barqaror darsliklarning mavjud emasligi hisoblanadi. Muammoning mohiyati shundan iboratki, amaldagi mavjud darsliklar davr talablariga javob bermaydi, o'quvchilar uchun qiziqarli emas, olam va texnika haqidagi yangi tasavvurlarni aks ettermaydi, o'quvchilarning shaxsisi imkoniyatlarini amalga oshirishga yordam bermaydi. Kadrlar muammosi ham mavjud bo'lib, pedagogik yo'nalishdagi oliy ta'limga bitiruvchilar kerakli bilim va ko'nikmalarga ega emaslar. Ular fizika va pedagogik mutaxassisliklar intellektual o'sishiga qodir emas, shu bois ham fizika fani o'quvchisi talablariga javob bera olmaydi. Natijada, maktablarda fizika fani o'quvchilarini yetishmaydi.

O'quvchilar uchun fizikani o'rganish tushunarli va ichki intiluvchan jarayon bo'lishi kerak. Buning uchun atrof olamning universal tadqiqot metodlarini

o'zlashtirish, ushbu fanning tamoyillari va asosiy qonunlari mohiyatini tushunadigan fizika tilini mukammal egallagan o'quvchi va o'quvchilarga yordam beradigan mexanizmlar ishlab chiqilishi kerak. Maktab fizika ta'limi nafaqat kelgusida fizikaning profesional kash qilib oлган mutaxasisiga zarur, balki o'z kelajagini oldindan ishonchli, aniq, to'g'ri ayitib bera oladigan va o'ylaydigan har qanday madaniyatlari inson uchun zarur. Fizikani o'qitish va o'rganish o'quvchilarini fizikadan oлgan bilimlarini amaliyotga va boshqa sohalarda qo'llashga tayyorlarligilari ta'minlaydi. Shuningdek, boshqa fanlar mazmuniga va o'qitishishiga, o'quvchilarining intellektual tayyorliklari ta'sir qiladi.

Ushbu konsepsiyaning maqsadi mamakatimiz umumta'limga maktablarini fizika ta'limi savyasini hamdo stilik va rivojlanigan mamlakatlar maktablarini fizika ta'limi darajasiga olib chiqishga yordam beradi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

— jamiyat va ta'limga oluvchilar talabari bilan muvofiq ravishda fizika ta'limi o'quv dasturi mazmunini takomillashtirish;

— har bir o'quvchi uchun asosiy bilimlarni egallashni ta'minlash, o'quvchilar uchun tashxis qilishning avtomatlashtirilgan tizimini taqdim etish;

— maktab fizika xonasi va laboratoriyasini zaruriy texnik jihozlar, asbob va uskunalar bilan ta'minlash, fizika fani

o'quv dasturini amalga oshirish uchun zarur axborot resurslari bilan, shu jumladan, elektron formatda pedagog va o'quvchilarning faoliyatlarini optimalashtirish va ta'limga jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni qo'llash;

— fizika o'quvchilarini kasbyi sifatini oshirish mexanizmi yordamida ularni moddiy va ijtimoiy qo'llab, shaxsiga pedagogik yondashuvlari va muallifiq dasturlarini yaratish va amalga oshirish;

— o'quv yili mobaynida fizika o'quvchilarini uchun doimiy ravishda stajirovka, seminar, mahorat saboqlarini tangan savollar bo'yicha tashkil qilingan maydonchalarda o'tkazish;

— bloklari bo'yicha fizik tajribalarni namoyish qilish;

— sinflar bo'yicha laboratoriya ishlari o'tkazish; 9-, 10-, 11-sinflar uchun fizikadan praktikum ishlari o'tkazish;

— zamonaviy ta'limga texnologiyalar va resurslarini qo'llash (turlari bo'yicha);

— barcha mavzu bloklari bo'yicha siatlari masalarni yechish usuli;

— kombinatiyalashgan masalalarni yechish usuli;

— fizika kursi bo'yicha ayrim murakkab mavzularni bayon qilish metodikasi;

— maktab fizika kursi populyarizatorlari bo'yicha o'quvchilarini aniqlash va usullarni o'zlashtirish bo'yicha murakkab mavzularni tushuntirish bo'yicha mazabol soboqlarini o'tkazish.

Fizikani o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun o'qitishni shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etish lozim. Bunda muqobil o'qitish an'analar o'rtasida munosiblarini tanlash, ilmiylik, tushunarilik, ta'limga standartlarining aniqligi, tabaqalashtirish, fanlararo integratsiya asosiy o'rinda turadi.

Fizikani o'qitishda loyihalashtirish va tadqiqot usullari asosiy usul bo'lishi, ularning vazifalari o'quvchilarining kompetentligini rivojlanishidan iborat bo'lishi zarur. Loyihalashtirish fizika ta'limi bilan birgalikda taxminan kundalik turmushdagi amaliyotga yaqin o'quv muammolarni yechish bo'yicha o'quvchini mustaqil ijodiy ishslashga majbur qiladi. Loyiha — laboratoriya sharoitida pedagog tomonidan tashkil qilingan yetarli darajada ishlab chiqilgan muhim harakatdir. Loyiha bilan ishslash natijasida kommunikativlik, ijtimoiy va fan kompetensiyalari shakllantiriladi. O'quvchilarining mustaqil ravishda ishslashlari: umumlashtirilgan jadvallarni to'ldirishda, fizik praktikum ishlari va frontal laboratoriya ishlarini bajarishda, masalalar yechish jarayonida asosiy nazariy materialni mustahkamlash va mustaqil ravishda takrorlashga asosiy e'tibor qaratilishi zarur.

Dars jarayonida o'quvchilarining darslik bilan mustaqil ishslashlariga katta urg'u berilishi kerak. Darslik bilan ishslash jarayonida o'rganigan hodisa va jarayonlarni tushuntirish, material ichidan mantiqan bog'liqliki tushunish va ko'rish, matnidan asosiy materialni ajratish ko'nikmasini shakllantirish zarur. Asosiy o'quv material o'quvchilar tomonidan dars jarayonida o'zlashtirilishi zarur. Ushbu holat esa o'quvchidan dars o'tish metodikasini o'ylab tashkil etishini talab qiladi. Yuqori sinflarda o'quv materialini suhab yoki ma'ruza shaklida bayon qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agar ushbu konsepsiya o'id muammolar batafsil ijobji hal etilsa, fiziklar oldida qo'yilgan vazifalarini bajarish imkoniyati tug'iladi.

Rahmatulla BEKMIRZAYEV, Jizzax davlat pedagogika instituti professori, fizika-matematika fanlari doktori, Marjona MUSTAFOYeva, Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi

Dolzorb mavzu

O'zbekiston tarixi darslari qisqartirilmasisligi kerak!

Mustaqillikning qadriga yetish uchun, avvalo, o'sib kelayotgan barkamol avlodni "Vatanparvarlik vaksinasi" bilan emlash zarur. Buning uchun ulami tarix bilan qurollanirish, vatanimiz o'tmishida bo'lib o'tgan voqeahodisalar, ajdodlarimizning shonli, tahlikali hayot yo'lini mukammal bilish talab etiladi.

Xo'sh shunday ekan, nega bugun biz o'z tariximizning yangi-yangi qirralarini, ochilmagan jihatlarini tadqiq etib tariximiza yangi chizigilar, yangi ma'lumotlar kiritib, o'zlarining ilmiy-tadqiqot ishlari, yaratgan asarları, ilmiy-tahliliy xulosalari bilan soha rivojiga hissa qo'shib kelayotgan olimlarimizning asarları, disertatsiya va ilmiy-amaliy natijalari bilan keng jamoatchilikni, yoshlarni boxabar qilmasligimiz kerak!

Fikrimizni ochiqroq aytadigan bo'isak, 2020-2021-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarining birinchi bosqich nomutaxassis fakultet talabalari ga o'qitiladigan O'zbekiston tarixi darslari asossiz qisqartirib tashlandi. Bugun har bir qabul qilinayotgan qaror va farmonlar, qonunlarning loyihalari keng ja-moatchilik muhokamasiga qo'yilib, taklif va tavsiyalari inobatga olinayotgan bir paytda masala biror tarixchi olimning, sohaning yetuk akademik va professorlari, fan doktorlarining fikri inobatga olinmasdan qisqartirib tashlanishini nima deb tushunish kerak?

2020-yilda ijtimoiy tarmoqlarda keung muhokama qilingan oliy ta'lim tizimida o'qituvchilgan O'zbekiston tarixi darsining qisqartirishi haqidagi soha rahbarlari tomonidan ilgari surilgan takliflar tizimda uzoq yillardan beri mehnat qilib kelayotgan aksariyat pedagoglarni ranjitgan edi. Albatta, har bir fan mutaxassisasi o'zi tanlagan sohanai ustuvor deb biladi. Lekin O'zbekiston tarixi faniga bo'lgan bunday munosabatni tushunishing qiynalasan kishi.


Bunday munosabatni oliy ta'limda o'qituvchilgan fanlarni optimallashtirish bahonasi bilan oqlab bo'lmaydi! Optimallashtirish natijasida nega aynan O'zbekiston tarixi fani aziyat chekishi kerak? Tarixga bo'lganadolatsizlik asorlarini xalqimiz hali unutgani yo'q.

To'g'ri, bir nechta ijtimoiy-gumanitar fanlarni birlashtirib, ulami optimallashtirish bu juda to'g'ri yondashuv. Oliy ta'lim tizimida o'qitish uchun ikkita fan: "O'zbekistonning eng yangi tarixi" va "Falsafa" fanlari qoldirilayotganligi juda ma'quldir. Aslida hozirgacha o'qitib kelgingan "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar", "Dinshunoslik", "Fuqarolik jamiyat" kabi fanlardagi asosiy g'oya va tamoyillar taklifi etilayotgan fanlar orqali berilishi mumkin. Biroq taklif etilayotgan fanlarning soatlari hajmi qisqartirilgani, o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar emas, talabalar tomonidan tanlanadigan fanlar qatoriga kiritilgani bahsli. Taklif etilayotgan fanlarning har ikkalasi ham majburiy fanlar qatorida qoldirilishi lozim.

2020-o'quv yilida fanlarning soatlari qisqartirilib, o'rganilishi ixtiyoriy qilib belgilanganligi noto'g'ri yondashuvdir va vazirlik tomonidan taklif qilinayotgan soatlardan miqdori bir keskinlikdan ikkinchisiga o'tishdan boshqa narسا emas.

Qadimgi yunonlar ilk bor uchratgan insoniga "Menga o'z tarixingni so'zlab ber, men sening kimligingni aytaman", deb bejiz murojaat qilishmagan. Biz kimimiz, kimlarning avlodimiz, o'tmishimiz, tariximiz, kechmishimiz qanday bo'lgan? Bunday o'rinni savollarning adog'i yo'q! Soddarq qilib aysak, milliy qadriyatlarimiz, buyuk allomalarimiz, ulug' mutafakkirlarimiz, yengilmas sarkardalarimiz, yurtimizning mard va jasur qahramonlari, xalq og'zaki ijadi, baxshichilik, dostonchilik, milliy-ma'naviy, moddiy va nomoddiy madaniy merosimizning barcha-barchasida tariximiz, milliy o'zligimiz mujassam emasmi?

Haqli savol tug'iladi! Maktablarda tarix fani o'qitsa, oliy ta'limda bu fan nega kerak? Unda, aytинг-chi, fizika,



matematika, ingliz tili, nemis tili darslari oliy ta'limda takrorlanmaydim? Xususan, texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'rta maktabda fizika, matematika, ingliz tili, nemis tili fanlaridan o'rgangan va olgan bilimlari oliy ta'limda ham takrorlanayotganligi, fizika, matematika, ayniqsa, ingliz tili, nemis tili fanlaridan talabalgara boshlang'ich darajada bilimlar berilayotganligi hammamizga ayon-ku!

Yosh avlod qaysi bir yo'nalish bo'yicha mutaxassis bo'lib yetishishidan qat'i nazar, uning dunyoqarashida mustaqillik mafkuransini shakllantirish uchun O'zbekiston tarixi, o'zbek xalqining boy madaniy merosi va o'zbek allomalarining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasi, milliy-ijtimoiy qarashlarimiz, falsafiy-e-tiqodiylar fikrlash tarzimiz qanday rivojlanganini biliishi zarur. O'zlikni anglash tarixini bilishdan va milliy qadriyatlar tizimiga, milliy e'tiqodga o'zini mansub, deb hisoblashdan boshlanadi. Isbot talab qilmaydigan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Negaki, o'z tarixini bilgan kishi jamiyatda va hayotda kechayotgan jarayonlarga o'zing mustaqil munosabatini bildira oladi. Talaba maktabda tarix fanini o'qidi. O'qish jarayonida undagi shakllangan dunyoqarash o'quvchilik yoshi nuqtayi nazi bilan o'chanadi. Umumta'lim maktablarini uchun yaratilgan tarix darsliklari asosan, o'quvchilarining dunyoqarashiga moslab, soddarq bayon etish

O'qituvchilar test savollari o'zlarini yechib, o'quvchilarga ko'chirishgan. Mana sizga "adolatli" tekshiruv, "xolisona ko'mak". Six ham kuymagan, kabob ham. Oliy ta'lim "fidoyi"-lari ham, maktab rahbarlari ham xursand. Eng qizig'i, shuncha tadbirkorlik bilan yo'l tutilgan bo'lsa ham maktab o'quvchilarining sinov natijalari yaxshi chiqmagani.

tarzida tuzilgan. Oliy ta'limda O'zbekiston tarixi fani qisqartirilgan soatlarda bo'lsa-da, fanga muammoli yondashuv asosida o'qitib kelinmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini aksariyat ilmiy darajali mutaxassislar, ya'ni fan doktorlari, professorlar, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktorlari, dotsentlar olib boradi. Oliy ta'limda yoshlarni qishlana o'qitishda chuqurroq, keyingi yillarda olimlarning fandagi ilmiy tadqiqotlari natijasi o'laroq qo'Iga kiritgan ilmiy yan-giliklari, yutuqlari bilan hamohang bilim berish tarzida yondashilgan. Oliy o'quv yurtiga o'qishga kirdan talabaning tarixa yana bir bor murojaat qilishi natijasida unda mustaqil xulosalar shakllana borib, uning dunyoqarashida ijobji o'zgarishlar sodir bo'ladi, tarixiy jarayonlar haqida ma'lumotga ega bo'ladi, unda tarixiy voqeqliklarni qiyosiy tahlil qila olish qobiliyat yuzaga keladi.

Afsuski, oliy o'quv yurtlarida o'tgan o'quv yilidagi boshlab O'zbekiston tarixi fani dars soatlari umuman qisqartirilishi bilan birga uning faqat bir qismi, ya'ni O'zbekistonning eng yangi davri o'rganilmoqda. Ayrim oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida esa mazkur fanning ikkalasi ham o'quv rejadani olib tashlangan. Bo'lajak mutaxassislar mustaqillikning qadriga yetish uchun Vatan tarixini mukammal bilishi shartku.

Tarixchi olimlarning yillar davomida olib borgan ilmiy izlanishlari va ularning natijalari bilan yoshlarni tanishtrish kerak. Xalqimizning boy tarixiy va madaniy merosi, hatto xorijiy mamlakatlarda ham katta qiziqish bilan o'rganilayotgani barchamizga g'urur va iftixon bag'ishlaydi. Bo'lajak mutaxassislarining dunyoqarashi va tafakkuri shakllanishida tarix fanini o'rganish, shubhasiz muhim o'rinn tutadi.

Bugungi kun nuqtayi nazaridan yondashgan holda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan yuqoridaq asoslarini inobatga olib O'zbekiston tarixi fanini qayta tiklab, bakalavr yo'nalishlari namunaviy o'quv rejalaridagi birinchi blok fanlariga O'zbekistonning eng yangi tarixi fani qatoriga O'zbekiston tarixi fanini kiritish masalasi ijobji hal etiladi, degan umiddamiz.

Yulduz ERGASHEVA,
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining "O'zbekiston tarixi" kafedrasini muridi, tarix fanlari doktori, professor, Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat kengashi deputati

Og'riq

Oliy ta'lim og'usini maktablarga sochmang!

Maktablar reytingi bitiruvchilarining oliy ta'limga kirishi bilan belgilanayotganidan xabaringiz bor. Shu ko'satkichga ko'ra maktablar "qizil", "sario", "yasi" da bo'linayotgani va "qizil" maktablarga hududdagi oliy ta'lim pedagog-xodimlari ko'mak berish uchun biriktilgani biz maktab o'qituvchilarini xursand qilgan edi.

May oyining boshlarida du-gonam asabiy holda makte-bimizda ro'y borgan bir voqeani aytib berdi. O'zim o'n bir yil o'qigan Qamashi tumanidagi 33-umumta'lim maktabi ham

"qizil maktab"lar ro'yxatiga qo'shilibdi. Qarshi davlat universitetining bir guruhi o'qituvchilarini maktab o'qituvchilarini va o'qituvchilariga yordam berish maqsadida tashrif buyurishibdi.

Buni qarangki, maktab o'qituvchilarining bilimidagi bo'shliqlarni aniqlash maqsadida olib borilgan test savollari va diktantlarni o'qituvchilarga 300 ming evaziga pullashibdi.

Sizdan bir o'tinchim, oliy ta'lim og'usini maktablarga sochmang!

Diifuz A.GAZNAYEVA,
Sirdaryo tumanidagi 5-maktab o'qituvchisi

Ustama emas, ish haqi belgilansin.

Mushtariy muhokamasi

Orzuga ayb yo'q

yoxud yangi o'quv yili oldidan eski xayollar

Hademay yangi o'quv yili boshlanadi. O'qituvchilar uchun esa taraddud — maktab ta'miri, obodonlashtirish, kamchiliklarni to'ldirish ishlari boshlandi. Shu jarayonda ularning xayollaridan ming xil o'y-fikrlar kechayotgan bo'lsa ajabmas. O'tgan o'quv yilda yuz bergan voqealar deysizmi, amalga oshgan va oshmay qolgan rejalar, muammolar... darvoqe, o'tgan yildagi muammolar bu yil bartaraf bo'larmiñ? Katta derazalarni artib, sinfxonaga pardalarni ilar, polga yangi bo'yoq surtib, devorlarga ohak separekan o'qituvchi shulurni xayolidan kechiradi. Gazetamizning "Ma'rifat" mushtariylari telegram guruhida ham ustozlar mana shu mavzuda dildan suhbat qurishdi. Xo'sh, siz-chi qadrl gazetxon, yangi o'quv yilda o'tgan yillardagi qanday muammolarga yechim topilishini istaysiz?

Dilfuza SUVONOVA, Yangi-yo'l tumanidagi 42-maktab o'qituvchisi:

Maktablар Kundalik.comga o'tyapti. Ammo hech kim o'qituvchi tarmoqqa ularishi uchun notebook yoki planshet kerakligini va bu vositalar bilan qanday ta'minlanishini aytmaydi. O'qituvchilarning hammasida ham notebook yo'q. Kredit to'layotgan ustozlar ko'p. Imkoniyati yetmaydigan ustozlar bor. Shunday ekan bu masalaning yechimiñ topish kerak. Yechimiñ sifatida esa yana falon foizli kreditni taklif etish kerakmas. Qaniyi o'z narxida, foizsiz, ammo kredit shaklida to'lov sharti bilan barcha ustozlar ta'minlansa (aslida bepul ta'minlash shart bo'lishi kerakmasmi?). Maktablarda Wi-Fi bo'lgani bilan to'rtta odam ulansa, ishlamay qoladi. O'qituvchi o'z megabaytidan foydalanaadi.

Norchuchuk NORMURODOVA, Shahrisabz shahridagi 16-maktab o'qituvchisi:

Maktabimizda qo'shimcha o'qubinosisi va tadbirlar o'tkazish uchun faollar zali qurilishini istardim. Sababi to'garak va qo'shimcha darslar o'tishimiz uchun sinfxonalar yo'q. Qachongacha tadbir o'tkazish uchun ochiq ob-havoli kunlarni kutib o'tiramiz? O'quvchilar 1-5 soat tik yoqoda tadbir tomosha qilishadi. Ularning aybi markazdan uzoqda yashaganimi?

O'qituvchilar uchun faqat qog'ozda yo'qolgan qog'ozbozlikni amalda ham yo'qolishini istardim.

Go'zal PINYOZOVA, Yangi-ariq tumanidagi 31-IDUM o'qituvchisi:

Maktabimizda 2 smenada dars o'tiladi. Qo'shimcha bino qurish uchun joy bor. Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi darsdan keyin o'quvchilar bilan shug'ullanishni xohlaydi. Lekin sharoit yo'q. Qo'shimcha bino qurilsa yaxshi bo'lardi.

Dildor NURMUHAMMEDOVA, Termiz shahridagi 23-maktab o'qituvchisi:

Metodbirlashma faoliyati qayta isloh bo'lishi kerak. Shu paytgacha shunchaki qog'ozda mayjud bo'lgan, bu tizimning aslida katta maqsad va vazifasi bor. To'g'ri, bu yil "ustama bel-

gilansin" degan yaxshi yangilik bo'ldi. Ammo mening taklifim: ustama emas, ish haqi belgilansin. Haq to'langan joyda ish bo'ladi. Talab kuchayadi. Vazi-fa sidqidildan bajariladi. Oddiy misol, o'zim metodbirlashma rahbariman, metodbirlashma papkasi uchun qog'oz to'plash bo'yicha ham ishim o'z o'rnda. Ammo amaldagi ishimdan o'zim qoniqmayman. Hammasini qog'ozda bajarib qo'yaman. Nega? Chunki mehnat uchun haq kerak. Metodbirlashma faoliyati butunlay qayta ko'rib chiqilsa, dasturi bo'lsa, qo'llanmasi bo'lsa, so'ng bu ishlarni bajaruvchiga, dars soatlari yoniga, ish haqi evaziga bir shtat sifatida vazifa belgilansa arzyidi.

Erkinjon YARASHEV, Zarafshon shahridagi 13-IDUM o'qituvchisi:

Kundalik.com masalasi qayta ko'rib chiqilishini istardim. Chunki ayrim maktablarda internet tezligi yaxshi emas. Darsda esa o'quvchini baholayman desangiz vaqt o'tib ketadi. Bunda tashqari, deyarli 90 foiz ota-onalar kundalik.comni tushunmaydi. Shunday bo'lgach farzandining baholarini ham ko'rmaydi. O'tgan o'quv yilda kundalik.comga ota-onalar kirsin, foizlarining oshadi, deyishdi. Bir sinfdan nari borsa 10 nafr o'quvchining ota-onasi kirdi. Bu taxminan, 30-33 foiz degani. Agar bu raqamni maktab, tuman, shahar, respublika darajasida hisoblab ko'rsak, har uch nafr o'quvchidan bir nafarining ota-onasi kundalik.comni tushungan bo'lib chiqadi.

Hech bo'limasa boshlang'ich sinflar da o'quvchilar baholarini tez-tez ko'rishlari, faxlanishlari uchun qog'oz kundalik qolishi kerak. Bilamizki, bu yosh toifasidagi bolalar o'ta qiziquvchan, bir-birining yonida maqtanishni yoqirishadi. Baholar orqali esa raqobat kuchayadi. Bu ota-onalarga ham noqulaylik tug'dirmaydi.

Shoira BOZOROVA, Romitan tumanidagi 1-maktab o'qituvchisi:

Yangi o'quv yili yaxshi o'quv yili bo'lishini xohlayman. Eng katta istagim, direktorning o'quv ishlari bo'yicha o'rinsbosariga poyoni yo'q turli jadvalar kelmasa va u o'z vazifasini bajarib,

darslarning sifat va samaradorligini kuzatsa, yosh o'qituvchilarning malakasini oshirishga ko'maklashsa, fan oyliklarning yuqori saviyada o'tkazilishiga boshchilik qilsa, o'quvchilarning OT-Mga kirishlari uchun maktabda uzluksiz ish olib borilishini nazorat qilishiga imkon berilisa yaxshi bo'lardi.

Maktablarning moddiy-teknika bazu-sini ham ko'rib chiqish kerak. Qozog'istonlik hamkasblarimiz kabi dars o'tadi-gan kabinetimizda har birimiz uchun, mayli hech bo'lmaganda har bir metod-birlashmada bittadan elektron doska bo'lsa mazmuni darslar o'tardik.

Dilrabo NORQULLOVA, Qarshi shahridagi 41-IDUM o'qituvchisi:

Keraksiz va faqat statistika uchun qilinadigan jadvallar yo'qotilsa. Tuman xalq ta'limi bo'limlari ham quruq topshirqlar berish bilan cheklanmay, vaqt-vaqt bilan metodik yordamlar ko'rsatsa, amaliy va nazariy bilimlar bilan o'rtoqlashsa edi!

Ra'no AVEZOVA, Qorovulbozor tumanidagi 8-IDUM o'qituvchisi:

Avvalgidek an'anaviy jurnal yurishni, har dars oxirida bolalarning bahosini jurnalga qo'yishni, o'quvchilarimiz ko'tarib yurgan qog'oz kundalikka baho qo'yishni, har kuni jadvaldagagi 5 soat darsimizni hech kim buzmashagini istayman. "Ana kimdir keldi, tayyor turinglar, yana kimdir keladi", deb eshigimizni hadeb o'chib tozalik haqida so'rab turishlarini istamayman. Shundoq ham o'qituvchi sinfxonasini ozoda tutadi. Xalq ta'limi bo'limi xodimlari dars vaqtida sinfxonalarga kirib, allaqanday ma'lumotlarni so'rashini istamayman. O'quvchisi faqat bolani o'qitsin. Talab shu bo'lsin! Olyi toifali o'qituvchiga 5 million, 1-toifali o'qituvchiga 4 million, 2-toifali o'qituvchiga 3 million oylik bo'lansa edi! Shundagina natija yaxshi bo'ladi.

Dilafruz XAMROQULLOVA, Marhamat tumanidagi 31-maktab o'qituvchisi:

Uyimiz yonginasida Uzdaewwo ishchilar uchun kottejlar bor, sharoiti zo'r, yaqinida bo'la turib bizda gaz yonmaydi. Negakottejlarda bor-u, bizdayo'q. O'quvchilar uchun ham xuddi shunday kottejlar qurilsa bo'lmasmokin-a yoki o'quvchilar davlat va jamiyat uchun Uzdaewwo ishchilar kabi foyda keltirmasmokin!?

Sarvinoz SUNNATOVA, G'ijduvon tumanidagi 47-maktab o'qituvchisi:

11-sinf o'quvchilarining hujjalarni oliy o'quv yurtlariga topshirish majbuliy vazifaga aylandi. Bundan o'quvchilar ko'proq aziyat chekyapti. Ba'zi bir o'quvchilar maktab partasi-dayoq bir hunarni mukammal egallaydi. Bitirib, yana o'sha oshpazlik, duradgorlik, ustachilik kabi hunarlarini davom ettiradi. Chunki ularning ish joylari,

daromad manbalari aniq-da. Shunday ekan, ularni OTMdA o'qishga majburlashga ne hojat?!

Hamza XUDOYBERDIYEV, G'ijduvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi:

Maktab ulug' dargoh, avvalo, maktabning ana shu ulug'ligini saqlab qolish lozim. Har xil qo'shimcha kurslar deb maktablarining nufuzi tushmoqda. Xususiy maktab qilish kerak yoki maktabning o'zida shu kurslarni tashkil qilish kerak "O'quvchi maqomi" to'g'risidagi qonunni tezroq amalga oshirish kerak.

Rahbaroy MELIBOYEVA, Uchko'priq tumanidagi 5-maktab o'qituvchisi:

Yangi o'quv yili boshlanishida o'qituvchilarida kayfiyat a'lo bo'lishini xohlayman. Avgust oyida dars to'g'ri taqsimlansa kayfiyat a'lo bo'ladi. O'quvchi ko'proq rag'batlanishilishi, maktab rahbarlari dars kuzatishini, dars tahlili bo'lishini xohlayman.

Dilfuza G'AZNAYEVA, Sirdaryo tumanidagi 5-maktab o'qituvchisi:

Yangi o'quv yilini hadik bilan kutyapman. Sababi maktab rahbari shuncha qing'ir ishni qilsa ham o'z joyida savlat to'kib o'tiribdi. O'n nafr o'quvchi "yozuvchi" bo'lib qoldik. Yangi o'quv yilidan maktablarda poraxo'rlik yo'qolishini istardim. Maktab rahbarlari ish so'rab kelayotgan yosh xodimlarni cho'ntagiga emas, bilimiga qarab ish berishini so'rardim. Xalq ta'limi vazirligi, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi, tuman xalq ta'limi xodimlari lug'atida tanish-billishchilik yo'qolishini istardim.

Ziyoda MAMAJONOVA, Kosonsoy tumanidagi 28-maktab o'qituvchisi:

Yangi o'quv yilini intiq bo'lib kutyapman, chunki bolajonlarni sog'indim. Lekin yana o'z imkoniyatimiz doirasida ta'mirlangan, kuz va bahor oxirida issiq, 6 oy davomida arang iliydigani (elektr toki bo'lsa) maktabimni, "Birinchi qo'ng'iroq" dan "So'nggi qo'ng'i-roq" gacha quyosh tig'ida, yomg'ir va qordan qo'chib o'tkaziladigan tadbirlarni, o'quvchi-yu o'quvchini umidvor qilib, yarim yo'lda qolib ketadigan tanlovlarni eslasam, o'ksib ketaman.

Tashkil topganiga 97 yil bo'lgan, barcha sohada birinchilikni qo'lg'a kiritib kelayotgan maktabim uchun faollar zali, ishlaydigan zamonaivi oshxonasi, sinfonalar esa elektron doska, proyektor kabi vositalar juda ham zarur. Afsus, bular men nafaqaga chiqqunimgacha amalga oshmasa kerak(10 yil bor!).

Qunduz KANIMKULOVA, Chinoy tumanidagi 21-maktab direktori:

Maktabda asosan tadbirlar bilan o'ralashib qolyapmiz. Tadbir va tanlovlar ko'pligidan qo'shimcha darslarga vaqt yetmaydi. Hech qanday natijasi bo'lmagan, keraksiz tadbirlar va tanlovlar kamaytirilib, asosiy va aniq reja asosida darslars tashkil etilsa yaxshi bo'lardi. Bolalarni tadbirga tayyorlash uchun kamida 1 hafta yoki undan ko'proq vaqt ketadi. Biri o'tishi bilan, ikkinchi tanlov e'lon qilinadi.

Zilola MADATOVA
tayyorladi.

“Menyu” metodi

Asarni tahlil qilishdan maqsad uning jozibasi, o'ziga xosligini ko'rsatish orqali o'quvchida hassos tuyg'ular, sog'lom estetik did, ravon va ifodali nutqni shakllantirishdan iborat. Tahlil ikki bosqichli jarayon bo'lib, birinchi bosqichda o'qituvchi darsga tayyorlanish jarayonida o'tiladigan asarni tahlil etadi.

Bu o'quvchining yakka tartibdag'i tahlili. Ikkinci bosqichda o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligida muayyan asar tahlil etiladi. Buni jamoa yordamidagi tahlil deymiz. O'quvchining ishtirotiga ko'ra alohida yoki butun sinf bilan ham tahlil qilishimiz mumkin. Bu jarayonda har bir o'quvchining javoblarini qabul qilamiz. Jarayonda yozuvchi ko'zda tutmagan g'oyalar ham o'quvchi tomonidan ochib berilishi mumkin. Tahlilda quyidagilar muhim:

— asar timsollarini tanishtirish;

— personajlarning xususiyatlarini sanash;

— qahramonlarning ijobji, salbiy va o'xshash tomonlarini topish.

O'quvchining yoki guruhning har bir fikrini o'qituvchi xulosalashi kerak. Albatta, biz o'quvchidan kutilmagan, qiziqarli javoblarini ham eshitishimiz mumkin. Muhimi, ularning mustaqil fikrlashi.

Tahlilning yakuniy qismida o'qituvchi darsdan olgan xulosasini aytib, asar tahlilini pedagogik-psixologik va ma'naviy-estetik jihatdan asoslab berishi

lozim. Badiiy asarni mazkur tarzda sinf bilan tahlil qilish — o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish va badiiy adabiyotni o'qishga qiziqishini oshirishda katta ahamiyatda ega.

Bugungi kun yoshlari juda qiziquvchan, e'tiborli, bir xillikdan tez zerikishadi. Shuning uchun darslarni ko'proq babs-munozarali, interaktiv metodlardan samarali foydalanib olib borish zarur.

“Menyu” metodi

Ushbu metod yakka tartibda yoki kichik guruhlar bilan ish olib borishni xohlagan ijodkor o'qituvchiga tavsiya etiladi. Bunda kichik guruhga muayyan topshiriq beriladi. Misol uchun, "Mehrobdan chayon" romanidagi quyidagi boblar sujetini ochib bering, deb vazifa topshiriladi.

Topshiriq

1. Baxmalbofa faqir bir oila.
2. Chin o'rtoq.

3. Maxdumning baxti.

4. Chayonning namoyishi.

5. Barimta.

Har bir guruh topshiriq oladi va 3 daqiqa davomida muhokama qildi, so'ngra guruhlardan bittadan valik stoldan tayyor "menyu"ni oladi. Uzon qirqilgan qog'ozlarda asardon olingen parcha yozilgan bo'ladi, keyin boshqa o'quvchi shu ishni bajaradi va zaruri materiallar yig'ilguncha bu holat davom etadi. Guruh ishtirotchilari voqealar ketma-ketligini to'g'ri qo'yishlari kerak. To'g'ri bajargan guruh ishtirotchilari rag'batlantiriladi. 3 daqiqa davomida topshiriq muhokama qilinadi. O'qituvchi guruh ishlarini va sardor faoliyatini baholab boradi. Bu o'zin orgali o'quvchi asarni har bir detaligacha e'tibor bilan o'qish kerakligini anglaydi.

Dilnoza SUVONQULOVA,
Bektemir tumani

293-maktabning ona tili va adabiyot
fan o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Kimsasiz joyda yolg'iz qolsangiz...

Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasi asosida mantiqiy va kreativ topshiriqlar

O'quvchini imtihonga emas, hayotga tayyorlash qanchalik muhim ekanligini barcha o'qituvchilar tushunib yetmoqda. 10-sinf adabiyot dasturida berilgan Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasi asosida 10 ta mantiqiy va kreativ topshiriq tayyorladik. Topshiriqlar o'quvchini "Yodla! Qaytar!" shaklidagi ta'lifdan olib qochib, kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantiradi. Badiiy asar mutolaasiga qiziqtiradi, paydo bo'ladijan savollarning muhokamasiga tafakkurini sozlaydi.

O'quvchi an'anaviy savol-javoblardan ko'ra ko'proq bilim va ma'lumot oladi. Eng muhimi, bugungi kun talablariga javob beradi, ya'ni onlays ta'lif jarayoni uchun mos keladigan topshiriqlar sanaladi, chunki bu topshiriqlar o'quvchidan mustaqil izlanish, tasavvur olamini boyitish, ota-onasi bilan hamkorlikda ishlash, individual yondashuvni talab qiladi. Bu topshiriqlar ko'chirmakashlikning oldini oladi, konsept yoki savol tuzishga barham beradi.

1-TOPSHIRIQ

Quyidagi savollarga o'quvchilar mantiqiy fikrlab, javob yozadilar:

Siz hayotda ayiqni ko'rsangiz birinchi xayolingizga nima keladi?

Yo'lovchining ayiq bilan to'qnashuvini eslang. U ayiqni ko'rgan zahoti nimani o'yladi?

Ayiq insonga qarab bo'kirdi, inson qanday himoyalandi?

Nega ayiq insondan qo'rqi deb o'ylaysiz?

Siz ham ayiqni shu yo'l bilan yenga olasizmi? Yozuvchiga ishondingizmi? Agar javobingiz "Yo'q" bo'lsa, o'z tasavvuringizdag'i ayiq bilan to'qnashuvni yozing.

2-TOPSHIRIQ

Hikoya matnidan kelib chiqib yo'lovchining tirk qolishiga sabab bo'lgan omillarga (X) belgisini qo'ying.

1	Kasal bo'ri bilan yonma-yon yurgani
2	Oltin to'la xaltalardan voz kechgani
3	Do'sti bilan alohida ketgani (oyog'i singani uchun tashlab ketdi)
4	Miltig'ini oxirgi soniyalargacha tashlamagani
5	Kaklik bolalarini tiriklayin yegani

3-TOPSHIRIQ

Ancha joydan birga kelayotgan do'sti Bill nega


yo'lda tashlab ketdi?

Nega soppa-sog' Bill kemaga yetib kelolmadi, lekin oyog'i singan yo'lovchi yetib keldi, deb o'ylaysiz?

Yo'lovchi yo'lda bo'rilardan qolgan suyaklarini g'ajib keldi, lekin do'sti Billning qizg'ish suyaklarini ko'rganida nega g'ajimadi, och edi-ku?


4-TOPSHIRIQ

Och bo'ri, yo'lovchi va tabiat o'rtasidagi o'xshashliklarni toping:



5-TOPSHIRIQ

Ushbu yo'lovchining yo'liga quyidagi detallarni to'g'ri joylashtiring:



6-TOPSHIRIQ

Siz hayotgingizda bo'rini yenga olasizmi?

Hikoyadagi odam nega bo'rini yengdi?

7-TOPSHIRIQ


Yo'lovchi tirk qolishga nega munosib deb o'ylaysiz?

Undagi qaysi insoniy fazilatlar sizning e'tiborin-gizni tortdi?

8-TOPSHIRIQ

Yo'lovchining o'mniga o'zingizni qo'yib ko'ring va bularni bir so'z bilan izohlang.

KARABL OLTIN OVQAT SOG'LIQ



9-TOPSHIRIQ

Kimsasiz orolda yoki tog'da yakka qolishga tayyormisiz?

Agar shunday holat yuz bersa, qaysi fanlardan olgan bilimlaringiz kerak bo'ladi?

Odam og'ir sharoitda yashab qolish uchun qaysi insoniy fazilatlarini yo'qotmasligi kerak?

Shunday sharoitga tushib qolsangiz o'zingizga muhim bo'lgan 2 ta predmet, 2 ta insoniy tuyg'umi yozing.

10-TOPSHIRIQ

Hikoyaga asoslanib quyidagi berilgan mavzuga mos rasm chizing.

1. Tabiat – insomning do'sti.
2. Tabiat – insomning dushmani.
3. Inson – tabiat bilan uyg'un.

Shahlo OSHQOVA,

Mingbuloq tumani

13-IDUMining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Teran tomirlar

Tilimizning uzoq ildizlari tutashgan bir til: xalach tili

Xalach yoki xalajlar – bugungi kunda so'zlashuvchilarining soni 30–40 mingga yaqin, Eronning birmuncha kungay tomonlarida, Tehronдан 200 chaqirim janubi-g'arbda Sultanobod va Sova (Hamadon va Qum viloyatlari orasi)dagagi qir-adirlarda chorvadorlik bilan kun kechirib, kundalik turmushida ko'proq ko'chmanchilik ustunlik qiluvchi turkiy elat. Bugungi kunda Erondagi 46 ta qishloqda xalachcha so'zlashilishi aniqlangan.

Bundan tashqari, xalachlarning sezi- larli bir bo'lagi ozarboyjon turkchasi, bir bo'lagi esa fors tilida so'zlashishga o'tgan. O'zlarining bir necha o'nlab qishloqlariga ega xalachlarning o'ziga xos tili Erondagi ko'pchiligi turkiy tillarning o'g'uz tarmog'i da so'zlashuvchi ozarboyjon, qashqay, xurosor turkiy, turkman va yana bir necha turkiy el-uluslardan an- chagini ajralib turadi. Bir qarashda ularning tili o'g'uzchadek ko'rinsa-da, ayrim kelishik qo'shimchalarining boshqacha yasalishi, o'g'uzchada uchramaydigan eski turkha yuzlab so'zlarining uchrashi va boshqalar bu tilni o'g'uz tarmog'iga kiritishga to'sqinlik qiladi. To'g'ri, bir necha yuzyilliklardan beri xalachlarning o'g'uzlar bilan qo'shni va aralash ya- shashi ularning tilida o'g'uzcha belgilarning oshishiga olib kelgan. Biroq xalach tilini o'g'uzchadan ajratib turadigan bosh ko'rsatkichlardan biri – o'g'uz tillaridagi so'z boshi g- undoshi ko'pincha k- deb aytilishi: gel- "kelmoq" o'mida kel-, go'z - ko'z; o'g'uzcha so'z boshi d- undoshining esa t- deb aytilishi: diri "tirik" o'mida tirri, tirrik, do 'rt "da" – to 'rt va boshqalar bu tilni boshqa turkiy tillarga, ayniqsa, o'zbek tiliga yaqinlashtiradi.

Xalachlar o'rta asrlarda O'rta Osiyodan Afg'oniston va Eronga ko'chib o'tishlaridan oldin o'g'uzlar bilan yonma-yon yashab, o'g'uzlarning 24 urug'idan biriga aylanib qolgan bo'lsa-da, uzoq o'tmishda ulardan boshqa urug' bo'lganini ko'plab yozma manbalari orqali kuzatsa bo'ladi. Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devon-u lug-atit-turk" asrida Zulqarnayn (Aleksandr Makedonskiy) bilan bog'liq bir og'zaki rivoyatni keltirib, Zulqarnayn kunchiqaqdagi turk o'lkalarini qo'lga kiritish uchun Xo'jand daryosi (Sirdaryo)-ni kechib o'tib, Isfijob (Sayram), Taroz va Balosog'un shaharlardan ham uzoqroqqa borgach, u yerdag'i qir-adirlarda ko'chmanchilik bilan kun kechiruvchi turk urug'lariga duch kelgani, ular 22 ta oila (to'g'rirog'i urug') ni o'z ichiga olishimi yozib, xalachlar to'g'risida quyidagicha bilgilarini – ma'lumotlarni tilga oladi:

"Qiniq, salg'ur (urug'lar'i) shular jum- lasidandir. Bu yigirma ikki oila ular orqasi- dan yayov borish yoki o'z o'rinalarda tura berish borasida kengashayotgan edilar, bul- lar yoniga ikki kishi kelib qo'shildi. O'ilalar ham ular bilan birga edi. Ular yuklarini orgalariga ortib olgan yo'sinda qo'shin ortidan borayotgan edilar. Ular charchab qiyngalgan, og'ir yuk ko'tarishdan terga tushgan edilar. Bu ikki oila, qolib ketgan yigirma ikki oilaga yo'liqqach, ular bilan so'zlashdashdi. Qo'shin ketidan borish-bor- maslik to'g'risida kengashdilar. Ikki oila ulargaga aytdilar: "Ey odamlar, Zulqarnayn yo'lovchi kishidir. U bir yerda turmaydi. Bizning yerlarda qolit ketmay, o'tib ketadi. O'y erimizda o'zimiz qolamiz". Ular ikki oilaga aytdilar: "galach, shu yerda turing- lar", – och golinglar, demakdir. So'ng ular xalach deb aytilganlar Xalachlarning asli shudir. Ular ikki qabiladir".

Ilk o'rta asrlarda Yettisuv o'lkasidan

yo'lda chiqib, Amudaryoni kechib o'tgan xalachlar Afg'oniston va Hindiston oraliq'idagi yerlarda o'mashdilar. Xitoy, arab, fors va baqtiri tilli yozma manbalarda Afg'onistonnинг tubjoy elatlardan biri o'laroq tilga olingan xalachlar o'rtal asrlarda yana o'g'uzlar bilan qo'shni bo'lib yashay boshlahashi. Shu o'rinda ular tili o'g'uz tiliga tobora yaqin tilga aylana bora- di. Shunga qaramay, xalach tilining o'ziga xos tomonlari saqlanib qolgan bo'lib, bu til bir tomonidan O'rxun – Enasoy bitiktoshlarining tiliga, ikinchi tomonidan esa "Xoqonija turkchasi"ning izdoshlari, boshqalar aytganda, turkiy tillarning qarluq tarmog'i – o'zbek va uyg'ur tillari bilan yaqin o'xhashlikka ega. Ayniqsa, boshqa turkiy tillarda ko'p uchramaydigan til hoidisi – unilari oldiga "h" tovushini qo'shish o'zbek va xalach turklarida anche keng tarqalgan. Mahmud Koshg'ariy bu to'g'rida quyidagicha yozgan:

"x (tovushi) u (tovushi)ga almashdi. Shunga o'xshash bo'g'iz harflari ham bir-biriga almashadi. Ayniqsa, x alifga, alif x (tovushi)ga almashinishi hollari ko'p uchraydi. Kitob yozuvchisi Mahmud aytdi: bobolarimizning amir (so'z)ni xamir deyishlari shuning o'rnagidir".

Eski turkcha va bugungi turkiy tillaridagi o'kuz – ho'kiz, urkak – hurkak, ulkar – hulkar, yid, id – hid, o'l – ho 'l so'zlarini o'nak o'laroq ko'rsatsa bo'ladi. Bu hoidisi ayniqsa xalach tili uchun yaqin bo'lib, qoidaga aylanib ketganki, boshqa turkiy tillardagiga o'xshab o'zbek tilidagi oyoq – hadaq, achchiq – ha'chug', och-hach, ayt-hay, in – hin, yiroq (iroq) – hiraq, og'riq – hag'rig, ottiq – hatulg', o'tli – hu'ilug' ko'rinishidadir. Shu o'rinda aytili o'tish kerak, eski turkchadagi sifat yasovchi – g- qo'shimchasi ko'pchiligidan turkiy tilarda tushib qolsa, o'zbek tilida birmuncha yaqin tovush -q, ayrim o'zbek shevalarini o'g'ri ko'rinishida bo'lib, shu tomonidan xalachchaga yaqin keladi: oyoq – ayag', achchiq – achchiq', og'riq – og'rig, ottiq – ottiq' singari. Ayniqsa, bu holat o'zbek tili qarluq shevasining Buxoro shahar va shaharoldi shevalarida ko'proq saqlanib qolgan.

Xalach tilidagi ayrim so'zlar bu tilining ancha eski turkcha ekanini, hatto O'rxun-Enasoy bitiktoshlarida qo'llanilgan turkchadan-da uzoqroq chog'larda yozuga kelgan yoki ushbu bitiktoshlar yaratilgan Turk xoqonligi (552–744), Uyg'ur xoqonligi (745–840) va Qirg'iz xoqonligi (840–924) chog'ida ayri bir tarmoq o'laroq o'trager chiqqan til tarmoq'i ekanini ko'rsatadi. Eski turkchadagi o'r-in patel keliishi (lokativ) – ka, -qa, -da, -ta qo'shimchalarining xalachchada -cha ekanı kuzatiladi: bo' herchä uch o'g'ul voramish "bu kishining yonida uch o'g'lon bor emish", sham istichä "shom ustida, oqshom vaqt'i" kabi. Yana bir o'mak keltiradigan bo'lsak, uy hayvonni, mol ma'nisdagi "qo'y" so'zini Mahmud Koshg'ariy arg'u tilida qon (qo'n), boshqa turklarda qoy (qo'y) deb keltirgan bo'lsa, xalachlar ham bugungi kunda ushbu hayvonni qon (qo'n) deb ataydilar.

(To'qmoq) shaharlari orasidagi Arg'u o'lkasida yashovchi turklar ishlatishini shu yo'sinda aytili o'tadi: "dag", "zag" – yo'q, emas ma'nosidadir (arg'ucha). "Ol andag" "dag" "ol" – u unday emas. So'ng o'g'uzlar yo'q, emas, emas ma'nosidagi bi so'zni arg'ulardan olib, "dag" "ol" ni "tegul" deb o'zgartirganlar. Chunki o'g'uzlar arg'ularga qo'shni turadilar. So'zlarida aralashish bor".

Qizig'i shundaki, deyarli ming yil oldin keltirilgan "yo'q, emas" ma'nosidagi ushbu so'zlar o'zbek tilida ham ishlatalib, ulardan biri – "ermas" tilimizda "emas" (ayrim o'rinnalarda "ermas" ko'rinishida ham) deb qo'llanilsa, "tugul" so'zining qo'llanilishi birmuncha toraygan. Chamasi, arg'ular ishlatgan "dag" ko'rinishi o'zbek shevalarida keng ishlatalidagi "yaq, yaaq" so'zida saqlangan. Koshg'ariy arg'ucha deb keltirgan yuqoridagi "Ol andag" "dag" "ol" so'zlaridan ayrimlarining XX yuziyillik boshlariga o'zbekchada "Devon"da keltirilgan ko'rinishlariya yaqin qo'llanligi ko'zga tashlanadi: eski turkcha kelgulig – xalachchha kelgili – o'zbek shevalarida kelgili. O'mak uchun: bo'kelgili herler almanlug'allar "bu ke- ladigan kishilar olmonlardir"; suv ichguluk hidish "suv ichadigan idish". Ayrim o'rinnalarda o'zbek tili va shevalarida ham "bu yerlarga qaytib kelgulik qilmasin", "ko'rgan ko'rguliging shu bo'lsin" singari so'zlar yasalganini ko'ramiz.

Eski turkcha so'zliklarda uchrab, boshqa turkiy tillarda deyarli saqlanib qolmagan yoki fonetik o'zgarishga uchragan ayrim so'zlar xalach tilida ishlatalayotgani kuzatiladi. O'rxun bitiktoshlarida "sha- har" ma'nosida kelgan balq – xalachchada balug' "qishloq", beduk – buduk "buyuk", bo'd – bo'd "bo'y", ked – "kiy- moq", to'd – "to'ymoq", kudägu – kidey "kuyov", quadruq – qurdug "quyrug'", kisi- kishi (ayol kishi), ba- va- "bog'lamoq", kudän – kudyen "to'y, ziyoft", um – im "shim", ut – hiit "teshik", urung – hurung, hiring "oq (tus)" va b. Qizig'i shundaki, keltirilgan ushbu so'zlarining sezilarini bir bo'lagi o'zbek shevalarida saqlangan. O'zbek tilining Parkent shevasida "bir bog' o't" so'zi "bir yaq" o't" ko'rinishida uchrab, undagi vaa' so'zini xalachchadagi va- "bog'lamoq" bilan, o'zbek tilida keng qo'llaniligidan "shim" so'zi eski turkcha um, xalachchha im "shim" bilan bog'lanadi.

Tilchilar Koshg'ariy "um" deb keltirgan so'zni o'zbek va yana bir necha turkiy tillardagi "shim" so'zi bilan tenglashtirib, bu so'zning negizida ich+um – ichum – ishum – shim so'zi yuzaga kelganiga urg'u beradilar. Bu yerda bugungi turkiy tillardagi "ishton", "ich-do'n" so'zlarining eski turkcha ich+to'n "ichki kiyim" so'zi negizida kelib chiqqaniga o'xshashlik ko'zga tashlanadi. Eski turkcha va xalachchadagi ut – hiit "teshik" so'zi o'zbek tilining Sayram shevasida hut "suv o'tish uchun devor tagidagi teshik" ma'nosida qo'llaniladi. Ko'philik turkiy tillarda unutilgan eski turkcha urung va xalachchha hurung "oq (tus)" so'zi Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanidagi tog'liq hududida Urung-ag'ach ko'li uchrab, uning negizida ham "Oq-og'och" ma'nosini yetadi, chamasidi.

G'aybullo BOBOYOROV,
O'zRFA Milliy arxeologiya markazi yek-
takchi ilmiy xodimi,
tarix fanlari doktori

Qattiqqo'l, talabchan va mehridaryo ustozlar maktabi



"Ma'rifat" men uchun haqiqiy sinov va o'sish maktabi bo'lgan. Qariyb besh yillik mehnat faoliyatim davomida bu maktabda juda ko'p ustozlardan journalistika va hayot sabog'ini oldim. Huklar To'ymanova, Abdusamad Rahimov, Bahodir Jovliyev, Baxtiyor Yoqubov, marhum ustozimiz Mahmud Sa'diy, Oybuv Ochilova, Shodiyor Mutahharov, Farrux Jabborov kabi mahoratlari, tajribali jurnalistlar menden maslahat va yordamlarini ayashmadi.

Ochig'i aytaman, "Ma'rifat"da juda qiyngalmanman. Aniqrog'i ilk borgan vaqtlarim uning an'analari, uslublari, mezonlariga tushishim og'ir kechgan. 2010-yilning mart oyida ish boshlagan bo'lsam, sentabrga boribgina "Yaxshi yozibisz" degan maqtovni eshti

2013-yil edi. Ikkinchisi kursda o'qirdim. Bilmayman, nega birdan "ish topish dardi"ga chalindim – tahririylar eshigini taqillata boshladim. O'shanda yaxshi jurnalist amaliyotdagina o'zini qayrashi, toplashi, pishitishi mumkinligi xayolimni chirmovuqdech chirmab olgan, faqat ish topsam derdim. Yo'q, poytaxtda qolish, qaylqadrigi ilashib, shahar tuprog'i niyalash degan niyatdan uzoq edim. Ehtimol, fakultet darslaridagi bo'shilq, ayrim o'qituvchilarining haminqadarligi, vaqtimizning havoga sovrlayotgani bolalikdagi orzu — gazetchilar bilan ishlash ishtiyoqini kuchaytirgan-ov! Emasam, puldan qisqan, yo biror kimdan qarz ko'targan joyim ham yo'q, qaysi gazeta yoki tahririyligidan qat'i nazar, ishga kirmsam, hamkasb topsam bo'ldi edi.

Hamma gap – poydevorda

O'sha kunlari "Oila davrasida", "Turkiston", "Hurriyat"ga, xuddi otamdan qolgan merosdek borishdan charchamas, ammo tayinli gap ololmay, har gal hafsalam o'lib, asablarni toliq ortinga qaytarvardim. Bir kuni bizdan bir kurs tepada o'qiydigan tanish opa: "Ma'rifat"ga borib ko'ring, ular da talabalarini amaliyotda sinash tajribasi bor, ma'kul kelsangiz, ishga ham olishdash, dedi.

Bordim. "Matbuot uyi"ning to'rtinchisi qavatiga ko'tarilib, kimga uchrashishini bilolmay picha garangsidi. Kimdir ko'rsatdi, shekilli, sal dadillashib, birinchi o'rinbosar oldiga kirdim. Ko'limdagisi mashq maqlalarimni ko'rib, Farrux Jabborov adabiyotga tortadi deb o'yildimi yoki boshqa, menga: "Adabiyot bo'limida domlamiz bor. Mahmud Sa'diy degan. O'sha bo'limda amaliyot qilasizmi? Lekin juda talabchan, o'qitadi, yozdiradi, avyosiz tahrirlaydi. Keyin mana bu yozganlarinig zo'ngizga arzimasdeko ko'rinadi", dedi. Ko'ndim. Oldindan meni nimalar kutayotganini o'ylashga, chandalab, xomcho'tlashga na tajriba, na istak bor. Aksinchala, meni oppa-oson (chunki ko'p tahririylar boshidanoq gapni mujmal qilardi) amaliyotchikka qabul qilganlardan og'zim qulog'imda edi. Bari xuddi kinolardagidek tavakkaliga, tikkasiga boshlandi.

O'shanda Mahmud Sa'diy domlaga qaysi mashqimni ko'rsatdim, nimalar dedim — esidma yo'q, domlaning biringa: "Ko'p kitob o'qi! Eng avval Shukur Xolmzayevdan boshla!" degani yodimda. "Ma'rifat"da bir yil amaliyotda sinalib (orada kelib-ketib, shashtim so'nib, ko'nglim sovigan paytlarni ku ga-

rganman. Lekin o'sha qiyinchiliklar meni borgan sari yanada kuchli, kurashuvchan qildi. Besh yil davomida nafaqat journalistika, balki ta'limning ham sir-asrorlarini chuqur o'rgandim, salkam pedagogiga aylandim. Va o'shanda qanday yozish emas, balki nimani yozish muhim ekanini anglab yetdim.

"Ma'rifat" men uchun iymon-e'tiqod, insoniylik, o'zaro mehr-oqib maktabi ham bo'ldi. U yerdagi har bir ustoz, har bir hamkasbimga nisbatan yuragimda his qiladigan mehr va sog'inch jamoaning ahiligi, yordamsevarligi, halolligi, ishiga, kasbiga, ish joyiga sadoqatining mahsulidir, albat. Bu sifat va xislatalar esa aslida "Ma'rifat"ning qarib yuz yillik qadriyatlari, an'analari mahsuli ekani, ular ustozlardan shogirdlarga, bir avloddan ikkinchi avlodga bekam-u ko'st yetkazilganiga ishonaman. Ana shu ulug' maktabning o'rtamyoniga o'quvchisi va bitiruvchisi ekanimdan butun umr faxrlanib yuraman.

Sanjar SAID,
jurnalist, bloger,
Turkiyaning Kastamonu universiteti magistranti,
Istanbul

hitmadim. Aksinchala, hamma go'yo yoshlarni yuzaga qalqitishga, yo'lini topishga ko'maklashishga kelishib olgандек edi. "Fasl tanlovlarida"gi g'oliblik, hamkasblaringning maqtov-alqovi, gohi achchiqroq tanbehlar, yangi yil arafasidagi shashka, stol tennisi musobaqalarini, bayramlardi kulg'i-o'yinlar, shodliklar... hozir barini entikib eslaysan.

Vaqt o'tib, "Ma'rifat" menga ikkinchi tuhfani — o'zimga ishnoch, qo'llimdan nimadir kela olishi hissini berdi. Garchi o'sha yillari bugungidek oshkorlik, har qanday mavzuni ham yozaverish, o'rta qida chiqarish imkonni bo'lmaysayam, qandaydir yo'llar bilan ko'ngilda tugun boylaganni amallab, zarbulmasal shaklida bayon etardik. So'zga xasislik, o'zingni o'zing ayamay tahrir qilish, ko'zni shart yumib, qaychilab-qirish sabog'ini ham shu gazetada o'rgandim. Bir gal ustoz Mahmud Sa'diy besh betlik yurak qo'reni berib yozgan maqolamni tahrirlab-tozalab, bir yarim betga tushirdi. Bundan avvalgi o'n betdan ziyyod matnimni, xuddi jarrohlardek chizib-chizib, to'ribetini qoldirdi. "Waqtingi bekorga sarflabsan!" dedi jilmayib. Alamim keldi. Yig'lagudek o'pkam to'lib, kitob-daftarlarni shart-shart sum-kamga soldim-dan, indamay chiqib ketdim. Asli, xafa bo'lgulik ish ham emas, ammo u payti o'zimga juda bino qo'yib, ko'zim xira tortganimi, domlaning bu ishi ko'ngilchamga "og'ir" botgandi. Orada ikki kun ishga bormadim. Bo'shash haqida ariza yozishni ham o'yladim. Keyin hovrim bosilib, hammasini tushundim. "Sun gap" hech kimga kerak emasligini domla amalda matnimni ayovsiz qaysidir janrda maqola yozishni buyurardim. Yozganlarimizni erimay, sincirkab qo'qir, tahrir qilardi. Biz esa tezroq amaliy marshg'ulotlar boshanib, gazetaning birgina sonini tayyorlash, so'z ustida ishslash, tahrir, maked, bezash jarayonlarini ko'rgimiz kelar edi. Gazeta chop etilib, to'o'quvchi qo'liga yetib borguniga qadar kechadigan o'ta qiziqarli bosqichlarni, muxbirlar, sahifalovchi dizaynerlar, kotibiyat faoliyati, o'ta mas'uliyatlari jarayon — korrektura jarayonini o'z ko'zimiz bilan ko'rishga shoshardik.

Yillar o'tib, "Ma'rifat"dan ketgach, boshqa joylarda ishsladim. Muhammarr, tajrimon, muxbir bo'lib, turfa insonlar, hamkasblar orasida yurdim. Lekin meni ijodkor sifatida shakllantirgan, hamisha professional darajada ishslashim kerakligini uqtirgan, o'rtaqiyonatda birlama qochishga o'rgatgan, chin boshilq va xodim qanday yozishga urishishni amalda ko'rsatgan "Ma'rifat" bo'ldi. Bola ta'lim-tarbiysi unga qo'yilgan poydevorga bog'liq deyishadi. Kasbiy faoliyatda ham shu: poydevor qancha mustahkam, pishiq-puxta bo'lsa, bunday xodim har yerdagi hammaga kerak! Shunday mehnatlari uchun "Ma'rifat" nomi qulog'imda edi. Bari xuddi kinolardagidek tikkasiga boshlandi.

O'shanda Mahmud Sa'diy domlaga qaysi mashqimni ko'rsatdim, nimalar dedim — esidma yo'q, domlaning biringa: "Ko'p kitob o'qi! Eng avval Shukur Xolmzayevdan boshla!" degani yodimda. "Ma'rifat"da bir yil amaliyotda sinalib (orada kelib-ketib, shashtim so'nib, ko'nglim sovigan paytlarni ku ga-



...Donishmand bir maromda oqayotgan sunvi kuzatib turgan shogirdlaridan so'rabdi:
— Anhoring tubida nimani ko'ryapsiz?
— Suv loyqalanibdi... kutilmagan so'roqdan yelkasini qisibdi biri.
Ikkinchisi esa ziyraklik bilan hayotga intilayotgan o't-o'lanlar, katta-kichik baliqchalaming goh oqimga qarshi, goh qo'shib suzayotganlarini aytibdi mulohazakor changda.

degan nom berilibdiki, o'zi va o'zgalar, yurt oldida burchi, vazifasi borligini anglab, o'zini tafish etib yashaydi. Faqat nafs quli bo'lib yashayotganlar esa yurtning, elning zararkunadalaridir. Men "Ma'rifat"ning gazetasida ozimi ko'pmi faoliyat yuritgan oddiy jurnalisti sifatida gazetaning qat-qatlariga ma'rifatlari shaxsni kamolga yetkazib, ona Vatan xizmatiga yo'llashdek katta va ulug' ishga kamarbastalik sharti fayzi, barakasi yo'qoladi. Umr shunchaki ma'nisiz sayohatga aylanadi. Ortinga o'girilib qarasam, "Ma'rifat"ning topshirilganini etib yashayotganlarida bo'ldi. Va shu nuqtada bir narsa meni suyuntiradiki, qayerga qadam tashlagan bo'lsam, gurunglar ilmlar bahsi, ibratlar yog'dusi haqida borardi. Ehtimol, o'zgalariga ilinganlaridan, o'rganganlarim ko'proq bo'lgan

tasidan kelishdi, deyishsa, odam birdan sergak tortadi-da. Sizlarda boshqacha ibrat borda" dedi sodda, samimi bir ohangda. U mening ism-familiyamni yaxshi bilsa-da, gazetaning nomiga ehtiromi bois shunday munosabatda bo'ldi, nazarimda. Nashrimizga bu hurmat uning mavqeysi, jamiyatda tutgan o'mini belgashi esa ayon. Meni yana bir quvontiradigan, g'ururlantiradigan jihat, gazetada an'anaviy, ta-

paytda jamoani yakdil, yakqalam qila bilgan, qaysi bir xodim qaysi vazifa, qay mavzuni mahorat bilan ado etishimi oldindan ko'ra olib, ilhomlantrir, ruhlantib, ko'rsatmalar bilan "quronlantirib" yo'naltirish mahoratiga, rahbarlik salohiyatiga ega bosh muharririlar mehnat qilishdi va bu xayrli an'analar davom etayotir. Men katta tarixiy yo'ning ma'lum qismi haqida fikr yuritapman, albatta. Lekin bu sanjirning azali ham ana shunday baqvut bo'lgani, ildizlari "Ma'rifat"ning hayotbaxsh bulog'idan suv ichgan chinorlar misol buguni, kelajagi ham nur, ziyo taribat turvchi mayoq bo'lishiga ishonaman.

... Emishki, bir dono yigit yo'doshidan so'rabdi:
— Bu dunyoda nima qilib yuribsan?

Hamrohi javob beribdi:
— Nasibamni terib yuribman. O'zingiz-chi?

— Rizq han bandalariga turli yo'llar bilan yetib keladi-da. Men ana shu tuznamagim ilm o'rganish va o'rgatishdek aziz ne'mat bilan qorishib vositalardara faoliyat yuritishga hozirlab borish bilan birga, jumladan, ilm, jonkuyarlik, g'ayrat-shijoatni qachon, nimaga va qanday sarf etish "Ma'rifat"ning mahorat darslarida o'qitanib... Ana shu tuyg'u meni quvvatlantrit turadi...

Men "Ma'rifat"ni ilm istab, izlariidan ibrat yog'ayotgan shu dono yigit, so'zim ibtidosa tilga oshadigan shahar hokimi (ayni paytda nafaqada bo'lsa kerak) huzuriga biror vaj bilan kirmsam, "Keling, Ma'rifat opa" deya beixtiyor stoli ustini tartibga keltira boshlardi. Bir gal bu holatdan taajjublanganimni sezib qoldi shekilli, "Ma'rifat" gaze-

bilan qilib yozib, qayta topshirdim. Maqola chop etilgandagi keyin bosh muharrir bilan yo'lab uchrashib golganlizda "Maqolangizdan xursandmisiz? Endi tushundizingizmi?" dedi va rahmat aytdi. Ana shu saboqdan keyin qolgan barcha maqolalarimni "nafas", "jon", "harorat", "hissiyot", "tasvir" bilan yozishga intiladigan bo'ldim.

Qisqa fursatda ko'plab yirik maqolalarim chop etildi. Ularni jamlab "Meridian bo'ylab sayohat" nomli publisistik kitobim dunyoga keldi. Unga atoqli adib, muhtaram ustoz Kurshid Do'stmuhamed mad so'zboshi yozdi, tilaklar bildirdi.

Tahririylardagi ijodiy muhit, xodimlar bilan o'zaro munosabatlar, ish jarayonidagi yengil yumor, qizg'in intisab-munozalaralar haqida aloha alohida bir maqolani ko'rib internetda olinjan axborotnomani o'qigandek bo'ldim. Maqolada sizning o'z ko'zingiz bilan ko'rgan manzara, nafas, his yo'q dedi. Masalan, mana bunday boshlashningiz mumkin edi maqolani, deb, shunday oddiy, samimi so'zlar bilan kirish qismini aytdi. Ichimda nega shunday qilish xayolimga kelmaganiha hayron bo'ldim. Chunki haqiqatan ham ustoz etilgandek yozganimda butunlay boshqalar materialga aylanardi maqola. "Agar xafa bo'limsangiz, maqolani bugungi sonidan olib qolsak, siz uni o'z so'zingiz, qalbingiz bilan ta'riflab yozishga urinib ko'ring", dedi. Shunday so'ng ustozning tavsiyalarini bilan kuzatib borardik, ulardek yoza olib qalbimadim.

Bir voqeja hech yodimdan chiqmaydi. Bu menga kelajakda bir umrlik dars bo'lgan vaziyat edi. Toshkent telemirorasi haqida maqolani yozishim kerak edi. Telemirora ma'muriyat bilan bog'lanib, uchrashuv belgilangach, bino qishi beixtiyor telemirorasi hozir katta lavozimlarda faoliyat yuritib kelmoqda. Ana shunday ulug', turixi nashrda ishslash baxtiga sazovor bo'lganidan behad minnatdorman. Men hamisha, hamma joyda faxr bilan "Ma'rifat" maktabini o'taganman, uning sabog'ini olganman" deyman.

Shahina JO'RAYEVA

Marifat
gazetasi
90
yoshda



Demoqchi bo'lganim, "Ma'rifat" o'z ovozi, o'z so'zi bilan jamiyatni, jamoatchilikni olamga tiyor, nigoh bilan boqish, har bir amalni ilm, tajriba, mashvarat bilan boshqarish, tarbiyani ta'lim, ta'limni tarbiyaning o'qildiziga

2006-yili talabalik baxtiga musharraf bo'lgach, ustozlarimiz Halim Saidov, Akbar Nurmatov va Nazira Toshpo'latovalarning ixtisoslik yo'nalishi bo'yicha ma'ruzalari jurnalistikaga bo'lgan qiziqishimning, ijodiy ishtiyoiqimning yanada oshishiga turki bo'lgan. Ayniqsa, Halim Saidovning har darsiga yangi maqola yozib kelib, ustozimizning nazariiga tushishga, e'tirofiga erishishga intilardik. Halim aka nazariya bilan amaliyoti birlashtirib o'qitar edi. Talabalarga mavzular berib, qaysidir janrda maqola yozishni buyurardim. Yozganlarimizni erimay, sincirkab qo'qir, tahrir qilardi. Biz esa tezroq amaliy marshg'ulotlar boshanib, gazetaning birgina sonini tayyorlash, so'z ustida ishslash, tahrir, maked, bezash jarayonlarini ko'rgimiz kelar edi. Gazeta chop etilib, to'o'quvchi qo'liga yetib borguniga qadar kechadigan o'ta qiziqarli bosqichlarni, muxbirlar, sahifalovchi dizaynerlar, kotibiyat faoliyati, o'ta mas'uliyatlari jarayon — korrektura jarayonini o'z ko'zimiz bilan ko'rishga shoshardik.

Ilk bor men tayyorlagan xabar gazetada chop etilgandagi shodligim hanuz yodimda. Dastlabki katta maqolalarimidan birlama qochishga o'rgatgan, chin boshilq va xodim qanday yozishga urishishni amalda ko'rsatgan "Ma'rifat" bo'ldi. Bola ta'lim-tarbiysi unga qo'yilgan poydevorga bog'liq deyishadi. Kasbiy faoliyatda ham shu: poydevor qancha mustahkam, pishiq-puxta bo'lsa, bunday xodim har yerdagi hammaga kerak! Shunday mehnatlari uchun "Ma'rifat" gazetasi qoshida

qilgan edim. O'shanda menga 10 ming so'm mukofot berishgan. Uni rahmatli Onamga bergenman. Onam talaba qiziqish yutug'idan quvoniq, yig'lab-yig'lab duo qilgan. Juda ta'sirlanganman. Ishayotganha kelmaganiha hayron bo'ldim. Chunki haqiqatan ham ustoz etilgandek yozganimda butunlay boshqalar materialga aylanardi maqola. "Agar xafa bo'limsangiz, maqolani bugungi sonidan olib qolsak, siz uni o'z so'zingiz, qalbingiz bilan ta'riflab yozishga urinib ko'ring", dedi. Shunday so'ng ustozning tavsiyalarini bilan kuzatib borardik, ulardek yoza olib qalbimadim.

Ish jarayonida mavzular xilma-xil, topshirilqlar ketma-ket bo'lardi. Sport

Charos NIZOMIDDINOVA

Yorqinbekning tanlagan yo'l

32-Xalqaro biologiya olimpiadasi g'olibining muvaffaqiyat sirlari

Navoiy shahridagi 11-IDUM o'quvchisi Yorqinbek Turdiboyev 18-23-iyul kunlari Portugaliya davlatida tashkil etilgan 32-Xalqaro biologiya olimpiadasida kumush medal sohibi bo'ldi. Mazkur olimpiadada dunyoning 76 davlatidan 304 nafar iqtidorli o'quvchi ishtirok etdi. Yuzlab bilimdonlar orasida zafar o'zbek o'g'loniga nasib qilgani xalqimizni behad quvontirdi.

Ko'plab insonlar qalbida "farzandim Yorqinbekdek bo'lsin" degan havas uyg'ondi. Shu o'rinda biz olimpiada g'olibining muvaffaqiyatlarini sirini o'rganib, mustahziylarimizga havola etishni lozim deb topdik. Zero har qanday muvaffaqiyatga o'zo'zidan erishilmaydi. Uning ortida ulkan mehnatlar yotadi. Yorqinbek bunday muvaffaqiyatga erishish yo'lida qanday ter to'kkani-yu, nimaldan voz kechib kecha-yu kunduz o'qib, o'rgangan to'g'risida ustozni Navoiy shahridagi 11-IDUMning biologiya fani o'qituvchisi Zebo Ro'ziqulovadan ko'pnarsalarni bilib oldik. O'qishga, bilim olishga qiziqish, bir emas bir qancha sohani egallab, biz kattalarni ham qoyil qoldirayotgan yoshlarning ko'payayotgani odamni xursand qiladi.

— Yorqinbek 6-sinfidan boshlab "Bilimlar bellashuvi"da qatnashib yurardi. 9-sinfidan beri uch yil davomida men uni olimpiadiaga tayyorladim. U bilan dars o'tgan kunim boshqa rejalarimni bir chetga surib, qattiq shug'ullanaman. Sababi Yorqinbek talabchan, ustozlaridan ham shu talabchanlikni so'raydi. 5-6 soatlab dars o'tib, dar-simiz hattoki kechgacha ham davom etardi. Judayam iqtidorli, o'qimishli, intiluvchan bola. Vagtni doim tejaydi. Kun tartibiga amal qiladi. Hech qachon bekor o'tirmaydi. Biologiyadan tashqari, ona tili, tarix, ingliz tili, matematika va boshqa fanlarni birdeq sevib o'qiydi. Do'stligiga doim hurmatda, samimiy munosabatda.

Yorqinbekning ota-onasida shunday odat bor, ular farzandlarini repetitorga bermaydi. Ular "bizning davrimizda repetitor bo'lgan, maktabda yaxshi o'qiganmiz", deyishadi. Shu sababdan ham Yorqinbek hech qanday repetitorga bormagan. Maktabni yaxshi o'qigan. Xalqaro olimpiadiadan tashqari Afka universiteti tomonidan tashkil etilgan 3 bosqichli olimpiada da ishtirok etib, biologiyadan 1-o'rinni egallab, 25 million, ingliz tilidan 5-o'rinni egallab, 15 million, matematika bo'yicha 6-o'rinni egallab, 9 million so'm mukofot bilan taqdirlandi. Mukofotlarning umumiyyat miqdori 49 million so'm. Bunday yutuqlarimiz ortida albatta, maktabimiz direktori G.Jumaniyozova tomonidan darslar, tadbirlar va ko'rik-tanlovlardan to'g'ri tashkil qilinganayotganligi ham ahamiyatli. Gulnora opa har qanday yutuqqa erishgan o'quvchini nazardan chetda qoldirmaydi. Olimpiada uchun tanlab olingen o'quvchi va o'qituvchini o'zi nazorat qiladi. Rahbarimizning o'quvchiga motivatsiya, o'z o'mida

tanbehlar berishi ham yutuqlarimiz asoslaridan biri deb bilaman.

Yorqinbek bu yil maktabimizni oltin medal bilan bitirdi. Akfa universitetiga grant asosida o'qishga qabul qilindi. O'zimizning universitetlarga ham ko'plab takliflar bo'lmoxda. U nafaqat tabiiy fanlarga balki chet tillarini o'rganishga ham qiziqadi. IELTSdan 7,5 ball olgan. Hozirda bolalarga ingliz tilidan saboq beradi, — deydi Zebo Ro'ziqulova.

"Hamisha yuqoriga" shiori bilan tengdoshlariga o'nak bo'lib kelayotgan iste'dod egasi bilan ham suhbatlashdi.

— Oilamizda o'qishga katta e'tibor qaratishadi. Ota-onam bizni asosan o'qishdagagi yutuqlarimiz uchun rag'bantirishadi. Ular kitob o'qishimiz, fanlarni yaxshi o'zlashtirishimizga nisbatan juda talabchan. Lekin ular mening reja-maqsadimni cheklashmaydi. Menga doim ishonch bildirishgan. Shu narsa menga katta mas'uliyat yuqlaydi. Farzand uchun ota-onaning ishonchi juda muhim. Ular menga ishonch bildiryaptimi, men ham ota-onam orzuvidek farzand bo'lishga harakat qilaman. Shu maqsadda o'zimiga yuqori talablar qo'yaman. Kunimni rejali va mazmunli o'tkazaman. Dadam o'qishim bilan ko'p shug'ullangan va kimyo, biologiyaga qiziqitirgan. Bobom shifokor bo'lgan. Men u kishiga havas qilganman. Ularning ishini davom etirish uchun shifokor bo'lishni maqsad qilganman. Biologiya faniga qiziqishim 5-sinfda uyg'ongan. O'sha paytdan boshlab bu fan sirlarini chuqur o'rganib, "Bilimlar bellashuvi", Fan olimpiadalarda ishtirok etib imkoniyatlarimni sinab kelaman.

— Maktablarda biologiya faniga e'tibor turli darajada. Umumiy ma'noda biologiya faniga e'tibor yuqori darajada emas. Chunki biologiya fanini qiziqib o'qiydiganlar soni ham ko'p emas. Ko'proq matematika, ingliz tili yoki boshqa chet tillariga qiziquvchilar soni ortmoqda. Biologiya sohasiga e'tiborni oshirish uchun amaliy mashg'ulot o'tkazishga jiddiy e'tibor berish kerak. Buning uchun kerakli jihozlar bilan maktablarni ta'minlash zarur. O'quvchi o'tayotgan darsini visual tarzda ko'rsa, tasavvuri kengayadi, qiziqishi yanada ortadi. Mavzuni mukammal o'rganadi.

Yorqinbek bilan gaplashib uning o'z fikriga ega, mustaqil, jiddiy bu yig'iting har bir jarayonga, atrof-muhitga shaxsiy munosabati borligini ilg'adik. Shu bo'si, uning maktablarda biologiya fanini o'qitishga yaratilgan shart-sharoit va e'tibor haqida qanday fikrda ekanligi bilan qiziqidik.

— Maktablarda biologiya faniga e'tibor turli darajada. Umumiy ma'noda biologiya faniga e'tibor yuqori darajada emas. Chunki biologiya fanini qiziqib o'qiydiganlar soni ham ko'p emas. Chetda qiziqib o'qiydiganlar soni ham ko'p



Suratda: Yorqinbek ustozи Zebo Ro'ziqulova bilan.

emas. Ko'proq matematika, ingliz tili yoki boshqa chet tillariga qiziquvchilar soni ortmoqda. Biologiya sohasiga e'tiborni oshirish uchun amaliy mashg'ulot o'tkazishga jiddiy e'tibor berish kerak. Buning uchun kerakli jihozlar bilan maktablarni ta'minlash zarur. O'quvchi o'tayotgan darsini visual tarzda ko'rsa, tasavvuri kengayadi, qiziqishi yanada ortadi. Mavzuni mukammal o'rganadi.

Suhbatimiz so'ngida Yorqinbek Portugaliyada o'tkazilgan 32-Xalqaro olimpiada jarayoni, rag'bat, hayajon hamda kelajakdagi orzu-maqsadlari haqida shunday dedi:

— Xalqaro olimpiadada saralash uch bosqichda amalga oshirildi. Bu olimpiadada qatnashayotgan ishtirokchilar uchun ancha qo'l keldi. Chunki respublika bo'yicha 400 dan ortiq 9-, 10-, 11-sinf, litsey, kollejlarning 1-, 2-kurs o'quvchilari qatnashgan bo'lsa, 1-bosqich yakunida 42 ta, 2-bosqichda 17 ta, 3-bosqichdan keyin yakuniy 4 ta terma jamaa a'zosari saralab olindi. Raqiblarimiz butun respublika bo'yicha o'z viloyatini eng kuchli o'quvchilar edi. Shu paytgachayam raqiblarimiz chakki bo'lgan. Rag'bat haqida ga-pirsam, Xalqaro olimpiadada kumush

da o'qishimni davom ettirib, yetuk neyrojarroh bo'lish. Toshkent, Navoiyda shaxsiy klinikalarimga asos solish orzum bor. Hozirda neyrojarrohlik sohasida malakali shifokorlar yetarli emas. Juda qiyin soha bo'lgani uchun ham yaxshi rivojlanmagan. Shuning uchun ham bu sohaning yetuk mutaxassisini bo'lishni oldimga maqsad qilganman.

Tengdoshlarimni, birinchи navbatda, hayotda o'zining o'rnini topishga, maqsadlarini aniqlab olishga, vaqtini to'g'ri taqsimlashga chaqiraman.
Inson o'zini bitta sohada emas, turli sohalarda sinab ko'rishi kerak deb o'ylayman. O'zim ham fan sohasini egallash- dan tashqari sport bilan faol shug'ullanaman. O'qituvchilik faoliyatini yuritaman. Chet tillarni o'rganaman. Biznesga old kitoblar o'qiyman. Har xil sohalarda o'zini sinab ko'rish insonning dunyoqarashini kengaytiradi va o'zining imkoniyatlarini chiqurroq anglashga va o'ziga bo'lgan ishonchini ortishida yordam beradi.
Tengdoshlarimga ham maqsad yo'lida muvaffaqiyatlarga erishishini tilab qolaman, — deydi 17 yoshidayoq yurtimiz faxriga aylangan Yorqinbek Turdiboyev.

Qahramonimizning muvaffaqiyatlari kaliti doim olg'a yurish, rejali kun tartibiga amal qilish. Yorqinbek vaqtim yo'q deb bahona qiluvchi tengdoshlariga "O'zingizning reja daftaringiz bo'lsin. ertangi kuningizda nima ish qilishingizni bilishingiz kerak. Bu ulgurmaslikning oldini oladi. "Ertal uxlangu, ertal turing" maqoliga amal-qiling. Ertal turib hamma ishga ulgurish mumkin. Sport bilan shug'ullaning. Badanni chiniqtirish miya faoliyatini yaxshilaydi, aql ochiladi, ishlarigizni ham maromiga yetkazasiz" deya o'z maslahatlarini berdi.

Dilafro'z ABDURAJABOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

"O'zbekning hayosi sizda mujassam..."

Hech o'ylab ko'rganmisiz, yana yigirma yildan keyin yoningizda hamroh bo'lib kimlar yoki nimalar qoladi? Boylik, turli taqinchoqlar, hattoki do'stlar ham aslida omonat emasmi? Xo'sh, eng ko'p vaqt ajratadigan telefonlarimiz bizga sodiqlik qiladimi? Yo'q, bunday bo'lismiga hech kim kafolat berolmaydi. Hattoki, o'zimiz ham kelgusidagi yigirma yil tugul, yigirma soniya ichida nimalar bo'lismini bashorat qilolmaymiz. Illo, bir vafodorimiz borki, agar sog'salomat bo'lsa, so'nggi nafasimizga qadar bizga hamroh bo'ladi. Bizni hech qachon tark etmaydi, sodiqligi uchun mukofot ham kutmaydi. Bu shubhasiz, olgan bilimlarimiz, egallagan malaka va ko'nikmalarimiz, yillar davomida shakllangan ma'naviyatimizdir.

Ma'rifat targ'ibotchisi

Mamlakatimizda ma'naviyat borasi-da havas qilsa arzigelik ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun ma'naviyat fidoyilaridan biri bo'lgan ustozimiz, professor, Respublika "Ma'rifat" targ'ibotchilarini jamiyatiga a'zosi, xalqaro spiker Jamila opa Shermuhammedova haqida hikoya qilmoqchimiz. Ustozimiz bundan yetmish yil ilgari qadim Buxoroning Qorako'l tumaniда tavallud topgan.

"Hamma yamoq ko'rpalar meniki edi"

O'ta kuchli tarib-intizom bilan o'n ikki farzand tarbiya topgan oilaga o'n birlinchi bo'lib qadam qo'ygan, bolaligidan padari buzrukvor Toshpo'lat ota tomonidan "professor qizim", deya erkalangan, kechalari kitob o'qiyman deb, qancha yangi ko'rpalarga yamoq solinishiga sababchi bo'lgan ma'naviyat targ'ibotchisining bolalik davri chindan barchamizga qiziq. Yozganlarimizdan ko'rpalarga yamoq solinishi degan joyini o'qib, hayratlanishingiz tabi, albattra. Bu haqida Jamila opaning o'zi shunday deydi: "Hech yodimdan chiqmaydi. Otam o'qish uchun hammamizga kitob bo'lib berardi. O'shanda menqa Tagorning "Halokat" asari berildi. Bir kitobni o'qishga tushdimi, uni tugatmaguncha qo'limdan qo'ymas edim. O'sha vaqtlar kech soat 8-9 dan keyin elektr energiyasi butun tuman bo'yicha uzib qo'yildi. "Halokat"ning eng qiziqarli joyiga kelganimda aksiga olib, yana chiroq o'chdi. Hamma uyquga ketgan. Men ham uylaydeman-u, kitob qo'llimda, xayolim undagi voqealarda... Hammaning uxlaganiga amin bo'lgach, lampani yoqib, ustimga ko'rnani yopib mutolaaga tushgandim. Kitobga berilib ketgandim, bir payt kuyik hidini sezdim. Qarasam, lampaning olovidan ko'rpam endi tutashni boshlagan ekan. Tez ustimdan ko'rnani olib, lampani joyiga qo'yib kelgandim. Bu hol ko'p qaytarilardi. Uyimizda yamoq solinigan ko'ra nechta bo'lsa, hammasi meniki edi. Ammajanom "Bu yamoq ko'rpalar Jamilaniki bo'lsa kerak", deb onamga hazil qildi..."

O'quvchi ham o'qituvchi

Maktab davrida juda qiziqarli, esda va qaldba qolarli voqealar ko'p bo'ladi. Hayotda o'z o'rnimizni topish uchun maktabda olgan bilimlarimiz, oilamizda ongimizga singgan tarbyiamiz muhim ahamiyat kasb etadi. Qahramonimiz professor Jamila Shermuhammedovaning erishgan natijalar, salohiyati, yuksak tafakkuri, boy ma'naviyat, qalb go'zalligi uchun ham avvalo oila, so'ngra maktab ta'lim-tarbiysi negiz bo'lgan, albatta. Ustozimiz o'quvchilik kezlarini quvonch bilan eslaydi. Maktabda qaysidir o'qituvchi kelmag'an bo'lsa, direktor "darsni" Jamila qizim o'tsin" deb aytar, matematikami, rus tilimi, biologiyami, qaysi bo'lismidan qat'i nazar fan tanlamay Jamila opa darsga kirar, gohi tengdoshlariga, gohi kichik sinf, gohida katta sinf o'quvchilariha ham mavzuni bir o'qib olib, uszlarderek tushuntirib berar ekan. Hatto o'sha paytlari ustozimizga tengdoshlarini tomonidan "kichkina o'qituvchi" degan nom berilgan ekan. Dono xalqimiz yaxshi niyat - yarim mol, deya bekorqa ta'kidlashmagan. Ellik besh yil ilgari "kichkina o'qituvchi" deb nom olgan ustozimiz chindan ham minglab shogirdlarga o'qituvchi bo'ldi. Faqat kichkina emas, katta yurakli, katta jasoratli, katta irodali ustoz bo'ldi.

Butun dunyo a'lochilar anjumani

Jamila opa nafaqat maktabda a'lo o'qigan, balki o'z tashabbuskorligini oliy o'quv yurtida ham namoyon qilgan. Toshkent davlat universitetida to'rtinchı kursda o'qib yurganida bir xabar universite bo'yicha shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Germaniyada butun dunyo a'lochilar anjumani o'tkazilishi haqidagi xabar Jamila opani ham befarq goldirmadi. Anjumanda qatnashishni chin dildan istagan talabanning niyati mustajob bo'ldi. Germaniya minbarida o'zbek qizi nutq so'zladi. Ma'ruza tuqashni bilan Jamila opani bir guruh chet elliklar qurshab, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlari haqida so'ray boshlashdi. Qizig'i shundaki, ustozimiz ularga

chet tillarida ulardan ham yaxshi gapi-rib, javob berardi. Butun dunyo anjumani ishtiroychilar o'zbekistonlik a'lochi talabanning rus, ingliz, turk, fors, fransuz tillarida bemalol gaplasha olishini, teran, o'tkir fikrlar bildirishini ko'rib, hayron qolgan. O'shanda anjuman qatnashchilarini Jamila opani o'z mamlakatlarida tashkil etiladigan xalqaro anjumanlarga, konferensiyalarga taklif etib qolishgan. Fidoyi ustozimiz shu kunga qadar juda ko'p mamlakat minbarlarda nutq so'zlagan. Jamila opa bilan suhbatlashganimda ayni damda nimalar bilan shug'ullanyapsiz deya savol berdim. Ustoz ispan va italyan tillarini o'rganayotgani haqida aytib qoldi. Professor, kuchli psixolog, xalqaro spikering, eng asosiyisi, yetmish yoshni qarshi olgan mo'tabar o'zbek onasining o'qish va o'rganishga bo'lgan muhabbat o'n sakkiz yoshli yoshlardan ham kuchli ekanligidan hayratda qoldim.

Ilm oilasi

Oila jamiyatning muhim bo'g'ini, Vatan ichidagi kichik vatandir. Jamila opaning Jamila Shermuhammedova bo'lishi uchun mustahkam oila tirkak vazifasini o'tagan. Oila shonch, samimiyat, muhabbat, mehr, tushunish, ardoqlash, qadrash qadriyatlari shakllansagina baxtxa erishib bo'ladi. Jamila opaning oilasi haqiqiy ilm, ma'rifat oilasidir. Ustozimiz falsafa fanlari doktori, professor bo'lsa, turmush o'rtog'i Rasiq Ilyas iqtisod fanlari doktori, professor. Ikki mukammal bilim va kuchli idrok egasi bo'lgan professorlar ellik yildirki, baxt nimaligini bilib, boshqalarga ham bildirib yashashmoqda. Farzandlari Oydinxon Ilyosovaning tarbiysi uchun chin yurakdan yondashganlar. Qizlari aspiranturani imtiyozli tugatib, bugun o'z oilasida farzand tarbiysi bilan mashg'ul bo'libgina qolmay, ilm bilan ham shug'ullanyapti. Uch nabirasi Saidikrom, Saidemir, Taminaxonlar "Jamila onamizday katabni sevamiz" shiorini maqsad qilib olishgan. Qadrli gazetxon, ustoz haqida yozyapman-u, baxtli, ilmli, zakovatli oilaga havasim kelyapti. Sizning chi..?

Shermuhammedovlar shajarasi

Qahramonimizning o'n ikki farzanddan biri ekanligini aytgan edim. Shermuhammedovlar oilasining suyanch tog'lari bo'lgan o'sha o'n ikki farzanddan biri akademik, yana biri doktor, biri iqtisodchi bo'lsa, biri muhandis, professor, xullas xalq, millat va Vatan xizmatidagi fidoyilarid. Oila yutuqlaridan deb qahramonimizning "Mehnat shuhrati" ordeni hamda kuni kecha Mudofaa vazirligining "Yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda faol ishtiroti uchun" ko'krak nishoni bilan e'tirof etilganliklarini ham keltirishimiz mumkin.



Inchunin, o'zining sharaflı shajarasiga ega bo'lgan Shermuhammedovlarni Buxoroda, Qorako'lda hamma taniydi, hurmat qiladi. Ayni kunlarda esa, Qorako'l shahrida ushbu shajaraning muzeysi tashkil etilmoqda. Bu haqida Jamila opaning o'zi shunday deydi: "To'ng'ich va undan keyingi akam ikkinchi jahon urushida qatnashib, Ukrainada qahramonlarcha halok bo'lgan. Qolgan aka-opalarim ham katta ilmiy yutuqlarga erishgan. Ota uyim joylashgan ko'chaga otajonimming nomi berilgan. Oilamizda turli sohalar bo'yicha mutaxassislar yetishib chiqqan. Shu sababli ham shajaramiz muzeysi tashkil qilinyapti. Bu uchun esa tashkilotchilarga alohida minnatdorchilik bildiramman".

Biz ham jamiyatimizga, ma'nativatimizga daxldor bo'lgan, jonkuyar ustozimizga shunday samimiyligi va mehribonligi uchun rahmat aytamiz. Shu kunlarda Jamila opa muborak yetmish yoshni qarshi oldi. Ustozga uzoq umr va sihat-salomatlik tilaymiz.

Dunyoning zakosi Sizda mujassam, O'zbekning hayosi Sizda mujassam. Muhtaram ustosiz, mukarram ona, Ajodolar ziyozi Sizda mujassam.

So'zingiz sehridan mehr ogranmiz, Har qatra ma'nosin

delga solganmiz.

Hikmatlar shodangiz taqib yurakka Shogirdlar safida bo'lib qolganmiz.

Siyrat-u suvrati go'zal onasiz, Vatan deb yashaysiz,

yurt deb yonasis.

Ezgulik qilasiz tinim bilmasdan, Yaxshilik bobida Siz durdonasiz.

